

**O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta  
maxsus ta'lif vazirligi**

**A. Qodiriy nomli Jizzax davlat instituti  
Pedagogika - psixologiya fakulteti**

**Pedagogika - psixologiya kafedrasи**

**BOLALARNI TA'LIM MUHITIGA  
MOSLASHTIRISH UChUN  
RIVOJLANTIRUVChI MASHG'ULOTLAR**

**(uslubiy qo'llanma)**

**Jizzax – 2014**

Ushbu o'quv qo'llanma kafedraning \_\_\_\_\_ - bayonnomma bilan ko'rib chiqilgan. Pedagogika-psixologiya ilmiy kengashining 20 yil \_\_\_\_\_ - yig'ilishida ko'rib chiqilgan va nashr qilish uchun institutning ilmiy keng'ashiga tavsiya qilingan.

Ushbu o'quv qo'llanma DTS talablari asosida Pedagogika-psixologiya yo`nalishini bitiruvchi bosqich talabalari uchun, shuningdek, qollej talabalari, pedagog-psixolog, amaliyotchi psixologlar, ota-onalar uchun mo'ljallangan. Unda bolalarni ta'lim muhitiga moslashtirish uchun rivojlantiruvchi mashg'ulotlar, maktabga qabul qilingan olti yoshli bolalar uchun korreksion rivojlantiruvchi mashg'ulotlarni o'tkazish bo'yicha tavsiyalar va nutq o'stirish mashg'ulotlari bo'yicha tavsiyalar, ularni amalga oshirish usullari va shakllantirish omillari haqida fikr yuritilgan.

**Muallif:**

**Qarshiboeva G. A.**

**Abduvahobova D.E.**

**Qodirova M.K.**

**Taqrizchilar:**

**dots. R.A.Abdurasulov**

**dots. R.Nurmatov**

**Mas'ul muharrir:**

## KIRISH

Istiqlol tufayli o’z mustaqil taraqqiyot yo’lidan borayotgan Respublikamiz yoshlarini yangicha ijtimoiy muhitga tayyorlash, davr ruhida tarbiyalash - shu kunning dolzarb va ustuvor vazifalaridan biridir. Hozirgi kunda Respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlarning taqdiri yoshlarning ma’naviy qiyofasiga, shaxsiy barkamolligiga bog’liq.

Lug’at, so’z ustida ishlash, o’qituvchi faoliyatidagi eng asosiy mashg’ulot bo’lib qolishi kerak. Biz yosh avlodga so’z vositasida dunyoni qabul qilishda yordam berishimiz kerak. Ona tilimizning asosi-lug’at, adabiyotimizning birinchi unsuri til bo’lar ekan, biz har xil qoidalar, ta’riflar o’rniga so’z o’rganishimiz lozim. Bola so’z ustida qancha ko’p ishlasa, uning so’z boyligi shuncha oshadi. Bola shaxsga aylanib boradi.

Bolaning so’z boyligini oshirishda izlanuvchanlik harakteridagi o’yin – topishmoqlarni qo’llash ham yaxshi natija beradi. Bu topshiriqlar bolalarda ijodiy faoliyat ko’rsatishni talab qiladi.

O’qituvchi mahoratining muhim belgilaridan biri bolani qiyinchilikni mustaqil enga olishiga o’rgatishdir. Bolalar o’z fikrini erkin bayon qila olish uchun etarli ko’nikma va malakalarga ega bo’lishlari shart:

Qo’llanmada keltirilayotgan rivojlantiruvchi mashg’ulotlar maktabgacha bolalarning fikrlashi, diqqati, xotirasi, nutqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga, shu bilan birga kichik muktab yoshidagi bolalarning ham bilish jarayonlarini rivojlantiruvchi mashqlar, tavsiyalar keltirilgan.

Uslubiy qo’llanma “Muktab hayotiga kirib borish” nomli G. Sukermanning materiallari asosida tayyorlandi. Taqdim etilayotgan “Assalom gullar shaxri” nomli mashg’ulotlar dasturi muktab hayotiga qadam qo’yayotgan bolalar bilan muktab sharoitiga tezroq va osonroq moslashishiga imkon beradi hamda nutqidagi nuqsonlarini bartaraf etib, o’z fikrlarini erkin va ravon bayon eta olishlariga yordam berish maqsadida ishlab chiqildi. Har bir o’qituvchi o’z mashg’ulotlarida berilgan mashqlarni bir necha bor takrorlasa, topishmoq, she’r, maqol va tez aytishlardan sabr-toqat bilan tartibli foydalansa, ko’zlangan natijaga erishish mumkin.

Agar o’quv qo’llanma bo’yicha taklif va maslahatlaringiz, fikrlaringiz bo’lsa yozma holda bayon qilsangiz muallif minnatdor bo’ladi.

## **Samarali korreksiya qilish bosqichlari.**

### **O`yin terapiya**

Faoliyatimiz davomida olib borilgan ta`limiy eksperiment natijalari shuni ko`rsatdiki, logopedik mashg`ulotlarni noan'anaviy tarzda tashqil etish va ularni o`yin shaklida olib borish yaxshi samara beradi. Bu faoliyatga bolaning o`zi faol qatnashib borganligi sababli, oldimizga qo`yilgan maqsadga erishish oson kechadi. Mana shu omillarni inobatga olgan holda tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarni bartaraf etishda logopedik o`yinlardan unumli foydalanishni tavsiya etamiz.

Ma'lumki, tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarni bartaraf etishda uning sabablariga alohida e'tibor beriladi. Chunki, artikulyatsion motorika harakatchanliginint etishmasligi va fonematik idrokning rivojlanmaganligi tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarni keltirib chiqarishi hammaga ma'lum.

Dastavval, artikulyatsion motorikani harakatchanligini oshirish ishlaridan boshlash lozim. Fonematik idrokni shakllantirish va rivojlantirish ishlari esa tovushni nutqqa qo`yish va mustahkamlash ishlari bilan parallel ravishda olib boriladi.

Quyida biz, tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarni bartaraf etishda foydalanish mumkin bo`lgan o`yinlar guruhni keltirib o`tamiz.

O`zbek tilimizning xususiyatlaridan kelib chiqib, bolalarni to`g`ri talaffuzga o`rgatishda logopedik o`yinlardan foydalanish yo`llarini takomillashtirish maqsadida boy abadiy merosimizdan namunalar keltiramiz.

Shu bilan birga, bolalarga kompleks ta'sir qilishni tashqil qilish maqsadida va nutqni rivojlantirish uchun yordamchi vosita sifatida barmoq mashqlarini qo`shib borishni tavsiya etamiz.

#### **1. Artikulyatsion motorikani rivojlantirish bo`yicha o`yinlar**

Artikulyatsion apparat harakatining aniq bajarilishi tovushlar talaffuzini to`g`ri rivojlanishiga imkon beradi.

Artikulyatsion apparatning aniq harakatiga erishish uchun ega artikulyatsion mashqlardan foydalilaniladi. Bu mashg`ulotning asosiy vazifasi bolalarda nutq apparatining, ya'ni til, lab, pastki jag` va tilchaning harakatchanligini rivojlantirishdan iborat.

Quyida artikulyatsion motrikani rivojlantirish bo`yicha olib boriladigan o`yinlardan namunalar keltiramiz.

#### **«Shirin murabbo»**

**Maqsad:** Til harakatini faollashtirish.

**O`yiniing borishi:** Tarbiyachi bolalarga murabbo yalayotgan qizchaning rasmini ko`rsatib, shunday deydi: «Murabbo juda ham shirin. Qizchaning

yuqorigi labiga surkalib qoldi. YUqorigi labga surkalib qolgan murabboni tilimiz bilan yalaymiz. Mana bunday (ko`rsatiladi). Murabboni endi sizlar tilingiz bilan yalanglar».

**Metodik ko`rsatma:** Mashqni takrorlash vaqtida bolalar til uchini pastki tishlarga tiramasin, fakat til ishlasin. Lablar va pastki jag` harakatsiz bo`lsin. Bu holatni nazorat qilib turish lozim.

### «Tishimizni tozalaymiz»

**Maqsad:** Til harakatini faollashtirish.

**O`yinning borishi:** Bolalar stulchalarida tarbiyachilarga qarab o`tirishadi. U bolalarga rasmi ko`rsatib, shunday deydi: «Qaranglar, mana bu bola tishini qanday tozalayapti. Hozir bizlar ham tishlarimizni tozalaymiz, faqat tish shuyotkasi bilan emas, balki tilimiz bilan tozalaymiz. Qaranglar, men tishimni qanday tozalayman. (Tili bilan yuqorigi tishni ichki tomonidan tozalaydi). Endi hammamiz tilimiz bilan yuqorigi tishlarimizni ichki tomonidan tozalaymiz. Tishlaringizni yaxshilab tozalanglar, tishlaringiz yaraqlab tursin».

Tarbiyachi bolalarni birma-bir chaqirib, til bilan tishlarni qanday tozalash kerakligini ko`rsatishni taklif etadi.

**Metodik ko`rsatma:** Mashqni og`izni ochib turgan holatda bajarish kerak. Tilning uchi yuqorigi kurak tishning ichki tomonidan bo`lib, o`ng va chap tomonga harakat qilish kerak. Bu paytda pastki jag` va lablar harakatsiz bo`lishi lozim. Lablar kulgi holatda bo`lib, tishlar ko`rinib turadi. YUqorida aytilgan holatlarning barchasini tarbiyachi nazorat qilib borishi darkor.

### «Otlar»

**Maqsad:** Til uchini faollashtirish.

**O`yinning borishi:** Bolalar ketma-ket turadilar. Tarbiyachining «ketdik» deyishi bilan bolalar bir-birlarini ketlaridan yurib, otlarning tuyoq tovushini aks ettirish uchun til uchi bilan shaqillatadilar va belgilangan joyga kelib to`xtaydilar. Tarbiyachi shunday deydi: «Endi kimning oti tuyog`i bilan yaxshi taqillata olishini tekshiramiz». Tarbiyachi ikki bolani chiqarib, qarama-qarshi tomonidan bir-biri tomon yurishni (Huddi otning yurishidek) taklif etadi. Qolgan bolalar ot tuyog`ining taqillashiga qulq solib turadilar. SHunday qilib, bolalar navbatma-navbat bu mashqni bajaradilar.

**Metodik ko`rsatma:** Til uchini yuqoriga to`g`ri ko`tarish kerak. Agar bola til uchi bilan turtishni bilmasa, bunday bola bilan alohida ish olib borish zarur.

Alohida ish olib borilganda quyidagi mashqni bajartirish mumkin. Tilning uchiga sariyog`ning kichkinagina bo`lakchasi deyiladi va boladan bu yog`ni tanglayga olib borib surish taklif etiladi.

### «Bekinmachok»

**Maqsad:** Til uchini faollashtirish.

**O`yinning borishi:** Bolalar stulchalarida tarbiyachiga qarab o`tiradilar. Tarbiyachi bolalarga: «Hozir biz bekinmachoq o`yinini o`ynaymiz, lekin bizlar bekinmaymiz, balki bizning tilchamiz bekinadi. Qaranglar, mening tilcham qanday yashirinadi, sizlar uni hatto ko`ra olmaysizlar (tilini berkitadi). Bolalar og`zingizni shunday oching-ki, tilingiz pastki tishlar ustida tursin, endi tilingizni ichqariroqqa yashiring, lekin og`zingizni yopmang.

**Metodik ko`rsatma:** Bolalar tinch o`tirishlari va gavdalarini to`g`ri tutishlari kerak. Bolalar tilni orqaga so`rganlarida og`izlarini yopmasliklari lozim. Til uchi doimo pastda bo`lishi kerak.

### «Tishlarimizni yashiramiz»

**Maqsad:** Lab harakatini faollashtirish.

**O`yinning borishi:** Bolalar tarbiyachiga qarab o`tirishadi: «Qaranglar, men yuqorigi tishlarimni ko`rsata olaman (ko`rsatadi). Endi yuqorigi tishlarimiz ko`rishmasligi uchun uni yuqorigi labimiz bilan yashiramiz. Tishlarim ko`rinyaptimi? Bolalar, yuqorigi tishlarimizni mana bunday qilib ko`rsating. Endi tishlaringizni yashiring. Ularni lablarimiz bilan yashiramiz. Tishlar ko`rinmayapti».

**Metodik ko`rsatma:** Bolalar tinch o`tirishlari lozim. YUqorigi lab bilan qilinadigan harakat osoyishta, zo`riqmay bajarilishi kerak. Tishlarni bir-biriga jipslashtirmaslik darkor. YUqorigi-oldingi tishlarini ko`rsatib turish vaqt 4-6 sekundgacha davom etishi mumkin.

### «Chumchuqlarni boqish»

**Maqsad:** Pastki jag` harakatini faollashtiriga.

**O`yinning borishi:** Bolalar tarbiyachiga qarab o`tirishadi, tarbiyachi esa bolalarini ovqatlantirayotganday ona chumchuq tasvirlangan rasmni bolalarga ko`rsatib, shunday deydi: «Hozir birgalashib bir o`yin o`ynaymiz. Sizlar chumchuq bo`lasizlar, men esa ona chumchuq bo`laman. Ona chumchuq don olib keldi. Hamma chumchuqlar og`izlarini ochishadi. Donni eyishdi va og`izlarini yopishdi». Bolalar bu harakatni bir necha marta takrorlashadi.

**Metodik ko`rsatma:** Bolalar tinch o`tirishlari, og`izni ochish va yopish vaqtida boshlarini u yoq – bu yoqqa tashlamasdan to`g`ri tutib turishlari kerak. Og`izni ochiq holatda saqlab turish vaqtida asta oshirib boriladi. Ammo u 4-6 sekunddan oshmasligi kerak.

### «Kim kulishni biladi?»

**Maqsad:** Lab harakatini faollashtirish.

**O`yinning borishi:** Tarbiyachi o`tirgan bolalardan shunday deb so`raydi: «Oralaringizda kim ovoz chiqarmasdan kulishni biladi? Kulganingizda men sizning ovozingizni eshitmay, faqat kulayotganlarining ko`ray. Qaranglar men qanday kulaman («e» tovushini o`zicha talaffuz etib, qanday kulish kerakligini

ko`rsatadi.) Endi bolalar, hammamiz bирgalikda kulamiz». SHundan keyin tarbiyachi ovozsiz kulish harakatini yaxshi bajargan bolalarni bir-bir chaqirib, boshqa bolalarga bu harakatlarni namuna tariqasida ko`rsatadi.

**Metodik ko`rsatma:** Tarbiyachi bolalarning engil kulishini, ya`ni burunlarini jiyirmay, lablarini oldinga ortiqcha cho`zmay, og`izlarini keng ochmay kulishini kuzatib beradi.

### «Xokkey»

**Maqsad:** Til harakatini faollashtirish.

**O`yinning borishi:** Tarbiyachi o`tirgan bolalardan shunday deb so`raydi: «Bolalar, xokkey o`yini qanday o`ynalishini bilasizmi? (Tushintiradi). Hozir bирgalikda xokkey o`yinini o`ynaymiz. Faqat klyushka o`rnida og`zimizdan foydalanamiz. Endi shaybani (no`xatni) klyushka bilan (tilimiz) maydonda (og`zimizda) harakatlantiramiz. (Tarbiyachi qanday bajarish kerakligini tushuntirib, ko`rsatib beradi)».

### «Fokus»

**Maqsad:** Tilni yuqoriga ko`tarish va havo oqimini tilning o`rta qismiga yuborishga o`rgatish.

**O`yinning borishi:** Jilmayish, og`izni sal ochib, tilning oldindi keng qirrasini yuqorigi labga qo`yish, tilning chekka qirralari og`iz burchagiga tegib tursin. Tilning o`rta qismida esa kichkina tarnovcha hosil bo`lsin va shunday holatda burun uchiga qo`yilgan paxta puflab tushirilsin. Agarda havo oqimi tilning o`rtasidan o`tsa, u vaqtda paxta yuqoriga qarab uchadi.

**Metodik ko`rsatma:**

1. Pastki jag` harakatsiz bo`lsin.
2. Tilning yon qirralari yuqorigi lablarga tegib tursin.
3. Pastki lab qiyshaymasin va pastki tishlarga tegmasin.

### «Itoatsiz tilni jazolash»

**Maqsad:** Til muskullarining bo`shashishiga yordam berish.

**O`yinning borishi:** Bu mashq quyidagicha o`tkaziladi: tilni keng va tinch holatda bo`lishi uchun og`izni bir oz ochib, tilni sekingina pastki labga qo`yib, «yuqorigi lab bilan tilni «pya-pya-pya» deb shaqillatish kerak. Birdan beshgacha yoki ungacha sanaguncha og`izni ochib, keng tilni tinch holatda ushlab turish kerak».

**Metodik ko`rsatma:** Pastki lab iloji boricha burilib ketmasligi va pastki tishlarga tegmasligi kerak.

Agarda mashq to`g`ri bajarilayotgan bo`lsa, paxta bir tomonga og`adi.

### «Kim yaxshiroq naycha qiladi?»

**Maqsad:** Lab harakatlarini faollashtirish.

**O`yinning borishi:** Bolalar yarim doira shaklida o`tirishadi. Tarbiyachi bolalarga naycha tasviri chizilgan rasmni ko`rsatib, ularga lablarni oldinga cho`zib, naycha qilishni taklif etadi. «Qaranglar bolalar, men qanday qilib naycha hosil qilaman», deb lablarini oldinga cho`zib ko`rsatadi. Tarbiyachi «Naycha qilamiz» deyishi bilan bolalar lablarini oldinga cho`zadilar, «Naycha chalishdan to`xtaymiz» deyishi bilan esa bolalar lablarini oldingi holatiga qaytaradilar.

**Metodik ko`rsatma:** Lab harakatlari vazmin va hech qanday kuch talab qilmasligi kerak. Bola lablarini oldinga cho`zarkan, og`iz ochilmasligi va pastki jag`ini oldinga chiqarmasligi kerak. Buni tarbiyachi doimo e'tibor bilan kuzatib borishi lozim.

### **«Lablar dumaloq, huddi teshikkulchaga o`xshash»**

**Maqsad:** Lab harakatini faollashtirish.

**O`yinning borishi:** Tarbiyachi bolalarga teshikkulcha tasvirlangan rasmini ko`rsatadi va shunday deydi: «Bolalar kim labini huddi teshikkulchaga o`xshatib, dumaloq shaklga keltira oladi. Maka bunday qilib (ko`rsatadi). Lablar dumaloq bo`lishi uchun tarbiyachi «O» tovushini talaffuz etib ko`rsatadi. Tarbiyachi navbat bilan bir necha bolani chaqirib mashqni bajarishni taklif qiladi. So`ngra hamma bolalarga lablarini dumaloq shaklga keltirishni taklif etadi».

**Metodik ko`rsatma:** Tarbiyachi bolalar mashqni zo`riqmasdan bajarishlarini kuzatadi. Og`iz ochiqroq bo`ladi.

### **«Quvnoq tilcha»**

**Maqsad:** Til harakatini faollashtirish.

**O`yinning borishi:** Bolalar stulchalarida tarbiyachiga qarab o`tiradilar. Tarbiyachi bolalarga shunday deydi: «Hozir men sizlarga bir qiziq voqeani aytib beraman. To`gri o`trib, hammangiz diqqat bilan qulq solinglar. Bir tilcha bor ekan. U o`z uyida yashar ekan. Bir kuni uyg`onib, ko`chaga chiqmoqchi bo`libdi (til og`izdan chiqariladi) quyosh bormikan, deb yuqoriga qarabdi (til uchi yuqoriga ko`tariladi) keyin ko`lmakcha bormikan, deb pastga qarabdi (til uchi pastga tushadi). Tilchaga ko`cha yoqib qolibdi va aylangisi kelib qolibdi (til uchi yuqoriga, pastga, chapga, o`ngga harakatlantiriladi). Tilcha charchab qolibdi. Kuch to`plash uchun sut ichmoqchi bo`libdi. Sutni mushukka o`xshab ichibdi (til bilan yalash harakati bajariladi). Tilchaning qorii to`yibdi. Lekin lablarida sut yuqini yalabdi.

Avval yuqori keyin pastki lablarini tozalabdi (yuqorigi va pastki lablar yalanadi). Keyin yuqorigi va pastki tishlarini ham shu tartibda tozalabdi. Tilchaning yana yayragisi kelibdi. Belanchakni ko`rib, unda ucha boshlabdi (til goh burun tomonga, goh iyak tomonga harakatlantiriladi). Belanchakda uchishdan zerikibdi. Endi otda yurgisi kelib qolibdi (til uchi tanglayda shaqillatiladi).

Tilcha charchab qolibdi. U uyiga kirib, eshiklarini yopib uxlabdi. (Til og`iz ichiga tortilib, og`iz yopiladi)».

## 2. Fonematik idrokni rivojlantirishga qaratilgan o`yinlar

Fonetik-fonematik nutq kamchiligiga ega bo`lgan bolalarning og`zaki nutqini o`rganish shuni ko`rsatadiki, ularning nutqi kundalik muloqot ehtiyojlarini qondiradi. Ularning talaffuzida nutqning leksik-grammatik qatorida qo`pol buzilishlar kuzatilmaydi. Bu bolalar uchun fonematik idrokning shakllanish jarayoni tugallanmaganligi xosdir. Nutq kamchiliklari tovushlarini noto`g`ri talaffuz qilish bilan chegaralanib qolmay, shuningdek tovushlarni etarli farqlamaslik va so`zni tovush tomondan tahlil va tarkib qilishdagi qiyinchiliklardan ham iborat.

Fonematik idrokni rivojlantirish korrektcion-logopedik ishning eng asosiy yo`nalishidir. Bu ishlar tovushlar tahlili ustidagi ish bilan o`zaro bog`liqlikda olib boriladi. SHu bilan birga tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarni bartaraf etish ishlarini fonematik idrokni rivojlantirishga qaratilgan ishlar bilan birlgilikda olib borilgandagina yaxshi natijalarga erishiladi. Quyida biz, fonematik idrokni rivojlantirishga qaratilgan o`yinlardan namunalar keltiramiz.

### «Qizil-oq»

**Maqsad:** Eshituv idrokini rivojlantirish, so`zdagi tovushni aniqlash.

**Jihoz:** Har bir bolaga 2 tadan doirachalar (qizil va oq) beriladi.

**O`yining borishi:** Logoped, bolalardan diqqat bilan qulqoq solishni va berilgan tovush qaysi so`zda ishtirok etayotganligini aniqlashni so`raydi. Agar so`zda tovush ishtirok etsa, bolalar qizil doirachani, agar ishtirok etmasa oq doirachani ko`tarishlari kerak.

### «Tovush qaerda?»

**Maqsad:** Tovushning so`zdagi o`rnini aniqlash.

**Jihoz:** Rangli qarton qog`oz (qarton qog`oz eniga chizilgan chiziqlar bilan 3 ga bo`linadi, faqat kesilmaydi) va fishka (bayroqcha yoki doiracha).

**O`yining borishi:** Logoped so`zni talaffuz qiladi. Bolalar berilgan tovushning so`zdagi o`rnini aniqlaydilar. Tovush so`zning boshida, o`rtasida yoki oxirida kelganligiga qarab, fishka chiziqning birinchi, ikkinchi yoki uchinchi qismiga qo`yiladi. Bunday o`yin, logoped stolida katta format qog`ozi bilan yoki har bir bolaga alohida qarton qog`oz tarqatib chiqqan holda ham olib borilishi mumkin. Bolalar avval, tovushning so`zni boshida kelgan holatini, keyin esa so`zning oxirida kelgan holatini aniqlaydilar. Buni yaxshi o`zlashtirib olganlaridan keyingina, so`zning o`rtasida kelishi mumkin bo`lgan holatlar ko`rib chiqiladi.

## «Kim ko`proq topadi?»

**Maqsad:** Rasm asosida so`zdagi berilgan tovushni aniqlash.

**Jihoz:** Berilgan tovush ishtirok etgan so`zlar rasmi tasvirlangan syujetli rasm.

**O`yinning borishi:** Logoped bolalarga tegishli mavzuga oid syujetli rasm ko`rsatadi, masalan «Polizda». Bolalar rasmni diqqat bilan ko`rib chiqadilar. Logoped bolalarga: «Bolalar polizda nima terishmoqda?» degan savol bilan murojaat qiladi, bolalar javob beradilar. Keyin esa «Qaysi predmetlar nomida «R» tovushi (s tovushi va hokazo) bor?» ko`rinishida vazifa topshiriladi.

Har bir to`g`ri topilgan so`zga doiracha beriladi. Kim ko`proq doiracha olsa, o`sha bola qolib hisoblanadi.

## «Baliq ovi»

**Maqsad:** Lug`at boyligini oshirish, tovushning so`zdagi o`rnini aniqlash.

**Jihoz:** Metall skrepkalar, predmetli rasmlar, qog`ozli korobka, magnitli qarmok.. Skrepkalar predmetli rasmlarga o`matiladi.

**O`yinning borishi:** Bolalar navbat bilan qarmok, yordamida predmetli rasmlarni tuta boshlaydilar va nomlaydilar. Tegishli tovushning (masalan «R» tovushi) so`zda bor yoki yo`qligini, so`zdagi o`rnini (boshida, oxirida, o`rtasida) aniqlaydilar. To`g`ri javob uchun ochko bilan taqdirlanadi. Ochkosi ko`p bola g`olib hisoblanadi.

## «Kim diqqatlirok?»

**Maqsad:** Tovushlarni eshitib farqlashga o`rgatish, fonematik idrokni rivojlantirish.

**Jihoz:** Tegishli tovushga oid rasmlar.

**O`yinning borishi:** Bolalar stol atrofida o`tiradilar.

Logoped: «Hozir sizlarga rasmlar ko`rsataman va nomini aytaman, sizlar esa diqqat bilan eshitib, barcha so`zlar uchun umumiy bo`lgan tovushni topasizlar. Kim topsa qo`lini ko`tarib javob beradi», deb bolalarga o`yinning shartini tushuntiradi. Keyin logoped rasmlarni ko`rsatib nomlaydi. (masalan, s tovushidan boshlangan so`zlarni: stakan, somsa, sumka, supurgi, sovun). Bolalar esa: s tovushi, deb javob beradilar.

Logoped: «To`g`ri, bu so`zlarning barchasi s tovushidan boshlanadi. So`zlarni qayta nomlab bering deydi». Bolalar eslاب, ularni nomlaydilar. Keyin, o`zлari tovushdan boshlanadigan boshqa so`zlarni topib nomlashlari kerak. O`yinni murakkablashtirish mumkin.

## «Kim ko`proq so`z topadi?»

**Maqsad:** Tovushlarni farqlashga o`rgatish.

**Jihoz:** Koptok, fishkalar.

**O`yinning borishi:** Logoped biror tovushni aytadi va bolalardan ushbu tovushga oid so`z topish kerakligini so`raydi. Keyin bolalar doira shaklida turadilar. Ishtirokchilardan bittasi koptokni birorta bolaga qarata uloqtiradi. Koptokni ilib olgan bola tovush ishtirokidagi birorta so`zni aytishi kerak. Javob bergen bolaga fishka beriladi. Javob berolmagan yoki aytilgan so`zni qaytargan bolaga fishka berilmaydi. G`olib fishkalar soniga qarab aniqlanadi.

### **3. Sirg`aluvchi va shovqinli tovushlarni shakllantirishda qo`llaniladigan o`yinlar**

Tovushlar talaffuzini buzilishi asosan artikulyatsion jihatdan talaffuz qilish qiyin bo`lgan tovushlarda kuzatiladi. SHunday tovushlar qatoriga sirg`aluvchi va shovqinli tovushlar kiradi.

Bu tovushlardagi kamchiliklarni bartaraf etish ishlarini bolalar uchun qiziqarli bo`lgan o`yin faoliyati bilan bog`lab o`tish orqali, korrektsiyalash ishining samaradorligi oshadi.

Quyida keltirilgan o`yinlar sirg`aluvchi va shovqinli tovushlarni shakllantirishga qaratilgan.

#### **«Nasos»**

**Maqsad:** Bolalarga «S» tovushini to`g`ri talaffuz etishini o`rgatish.

**O`yinning borishi:** Bolalar stulchalarda o`tirishadi. Tarbiyachi bolalarga shunday deydi: - Hozir biz velosipedda sayr qilamiz. Velosipedda sayr qilishdan avval uning kamerasiga havo damlanganmi yoki yo`qmi shuni tekshiramiz. Velosiped uzoq vaqtgacha minilmaganligi sababali kamerasi bir oz bo`shab qolibdi. Unga dam berish kerak. Nasos bilan kameraga havo yuboramiz. Nasosdan chiqayotgan havo S-S-S, deb ovoz chiqaradi. Bolalar avval birma-bir, so`ngra birgalikda nasos harakatiga taqlid qilib, kameraga dam uradilar. Kameraga dam berish vaqtida S-S-S tovushini cho`zibroq etadilar.

**Metodik ko`rsatma:** Bolalar S tovushini to`g`ri talaffuz ishlari uchun lab, til holati va havo oqimining til o`rtasidan ishiga e'tibor berib borish zarur.

#### **«Arrakashlar»**

**Maqsad:** Bolalarga 3 tovushini to`g`ri talaffuz etishni o`rgatish.

**O`yinning borishi:** Bolalar ikki guruhga bo`linib, yuzma-yuz turib oladilar. Qo`llarini «krest» holida kesishtirib oladilar. YOg`ochni arrada kesish harakatini bajarib turib, Z tovushini cho`zib talaffuz qiladilar. Z tovushini noto`g`ri talaffuz qilgan bolalar o`yindan chiqadi. Tarbiyachi bu boladan alohida Z tovushini talaffuz qilishni so`raydi.

#### **«Bo`ron»**

**Maqsad:** Z tovushini mustahkamlash.

**O`yinning borishi:** Bolalar dovulni tasvirlaydilar. Tarbiyachining imosi bilan bolalar Z tovushini avval past ovozda, keyin baland ovozda, keyin yana past ovozda talaffuz qiladilar.

O`yinni avval oyna qarshisida olib borish ham mumkin.

**Metodik ko`rsatma:** Har bir bola uchun tovushni cho`zib turish vaqt 5-10 sekund atrofida bo`lishi kerak.

### «Razvedkachilar»

**Maqsad:** Bolalarni TS tovushini so`zlarda to`g`ri talaffuz etishga o`rtatish.

**O`yinning borishi:** Tarbiyachi bolalarga rasmlarni ko`rsatadi, bolalar rasmlarning nomlarini aytadilar. So`ngra tarbiyachi razvedkachilarni tanlaydi. Razvedkachilar xonadan chiqib turadilar. Tarbiyachi qolgan bolalar bilan rasmlarni xonaning turli burchaklariga yashirib chiqadi. Razvedkachilar kelib, rasm yashirilgan joyni qidiradilar va topib olgan rasmlarni bolalarga ko`rsatib, uning nomini aytadilar. So`ngra bolalar rol` almashadilar.

**Metodik ko`rsatma:** Narsalarning nomini aytayotganda TS tovushini aniq talaffuz etishlari kerak. TS tovushini cho`zib talaffuz etmaslik lozim. Aks holda TS tovush S tovushi bo`lib eshitiladi.

### «SHar yorildi»

**Maqsad:** Bolalarga SH tovushini nutqda to`g`ri talaffuz ettirishni mashq qildirish.

**O`yinning borishi:** Bolalar qo`l ushlashib zinch doira hosil qilib turadilar. Tarbiyachining «sharimizni shishiramiz» deyishi bilan huddi sharni shishirayotganday bolalar doirasi kengayadi.

Tarbiyachining «shar yorilyapti» deb chapak chalishi bilan bolalar qo`llarini yondan pastga tushiradilar va SH tovushini talaffuz etadilar.

### «O`rgimchak turidagi pashshalar»

**Maqsad:** J tovushini to`g`ri talaffuz ettirishga erishiga.

**O`yinning borishi:** Bolalarning bir qismi o`rgimchak turini tasvirlaydi, qo`llarini tushirgan holda doira bo`lib turib oladilar. Bolalarning qolgan qismi pashshalar bo`lib, «J-J-J» degan holda, doira ichida va atrofida uchib yuradilar.

Tarbiyachining ishorasi bilan, doiradagi bolalar qo`llarini ushlab olgan holda o`rgimchak to`rini hosil qiladilar. Doiradan chiqishga ulgurmagan bolalar to`rga ilingan hisoblanib, o`yindan chiqib ketadi.

Pashshalarning barchasi tutib bo`linmaguncha, o`yin shu tariqa davom etadi. Keyin esa rollar almashadir.

## **4. «R», «L» tovushlaridagi kamchiliklarni bartaraf etish jarayonida qo`llaniladigan o`yinlar**

Bolalar uchun artikulyatsion jihatdan talaffuz qilish qiyin bo`lgan tovushlardan yana biri bu sonor (*r*, *l*) tovushlari hisoblanadi.

Bu tovushlarning aniq talaffuziga ba`zan taqlid usuli orqali ham erishish mumkin.

Quyida, taqlid usulida foydalangan holda *r*, *l* tovushlaridagi kamchiliklarni bartaraf etish jarayonida qo`llaniladigan o`yinlardan namunalar keltiriladi.

### **«Rubob chalamiz»**

**Maqsad:** Bolalarning *L* tovushini to`g`ri talaffuz etishlariga erishish.

**O`yinning borishi:** Tarbiyachi bolalarga: «Hozir sizlar orkestr bo`lasizlar. Orkestrda ko`p musiqa asboblari chalindi. Sizlar rubob chalasizlar», deb rubobni qanday ushlab chalish kerakligini ko`rsatadi (chap qo`li bilan huddi rubobning pardasini ushlayotgandek, o`ng qo`li bilan esa torni chertayotgandek harakat qilib «la-la-la», deb aytadi). Tarbiyachining ishorasi bilan hamma bolalar rubob chaladilar.

### **«Paraxod»**

**Maqsad:** *L* tovushining to`g`ri talaffuziga erishish.

**O`yinning borishi:** Tarbiyachi shunday deydi: «Bolalar hozir hammamiz paraxodga tushib sayr qilgani boramiz. Sizlar paraxod qanday ovoz berishini bilasizlarmi. Eshitinglar: *i-i-i*. . . Paraxod qanday gudok berishini bиргаликда takrorlaymiz.

Endi keng tilni tishlar oralig`iga qo`ying, uni sekingina tishlang va paraxodning gudok chalishini bajarib ko`rsating». Bolalar bu harakatni bajaradilar, tishlar oralig`ida *L* tovushi hosil bo`ladi.

Tarbiyachi va bolalar bu mashqni ketma-ket takrorlaydilar.

**Metodik ko`rsatma:** Bolalarga eng baland masofada uchib ketayotgan samolyotning ovozi *L* tovushiga o`xshash ekanligini eslatib o`tish lozim.

### **«Otlar»**

**Maqsad:** Bolalarning *R* tovushini to`g`ri talaffuz etishlariga erishish.

**O`yinning borishi:** Bolalar uch guruhi bo`linadilar. Birinchi guruhi bolalari esa otlar bo`lishadi. Otlarni tasvirlovchi bolalar ikkitadan bo`lib, qo`l ushlashib, (qo`llarini solishtirib) turadilar.

Otlar haydovchining boshqaruvi ostida otlardek yuguradilar. Tarbiyachining buyrug`iga binoan haydovchi otlarni «trrr...» deb to`xtatadi. So`ngra bolalar rol almashadilar.

**Metodik ko`rsatma:** *r* tovushining artikulyatsiyasi bolalarga tushuntiriladi.

## «Qarg`alar»

**Maqsad:** Bolalarni **R** tovushini nutqda to`g`ri talaffuz etishlari ustida mashq qildirish.

**O`yining borishi:** Bolalar uch guruhgaga bo`linadilar. Birinchi guruh bolalari archalarni tasvirlab gullarini pastga tushirgan holda doira o`rtasida turadilar va shunday dedilar: «landi-landi o`yinimiz boshlandi va yashil archa tagida qarg`alar qag`illashmoqda».

Ikkinci guruh bolalari: Qarg`alar bo`lib doira ichiga sakrab-sakrab kirishadi va «qar-qar-qar...» deb qag`illashadi.

Birinchi guruh bolalari shunday deydilar: «po`choq uchun urushdilar, tomoqlarin qirishdilar».

Ikkinci guruh bolalari – «qarg`alar» doira ichida turib «qar-qar-suvar tezda oqar» - deb tez-tez qag`illashadi.

Birinchi guruh bolalari – «qarg`alar», «yugurishdi toz itlar, uchib ketdi qarg`alar, qo`nib daraxt shohiga qar-qar-qar deb qarillashar», - deb aytishlari bilan uchinchi guruh bolalari (itlarni tasvirlovchi) doiraga «**r-r-r...**» deb irrillab yugurib ketar vovullab, yugurib kiradilar va qarg`alarning ketidan quvadilar.

Qarg`alar (oldindan belgilab qo`yilgan joyga) «inlariga» uchib ketishadi. Ushlangan qarg`alar itlar bilan birga qaytishadi va maxsus joyga qamab qo`yiladi. O`yin to ikki-uchta chaqqon qarg`a kelib qamalgan qarg`alarni qutqarmaguncha davom etadi. So`ngra bolalar rol` almashadilar. O`yin yana davom etadi.

Metodik ko`rsatma: Bolalar so`zlarini baland ovozda, aniq mazmunli gapirishlari kerak.

## 5. Til orqa (*k, g, x, y*) tovushlardagi kamchiliklarni bartaraf etish jarayonida qo`llaniladigan o`yinlar

Artikulyatsion jihatdan talaffuz qilish qiyin bo`lgan tovushlarning qolgan turiga til orqa (*k, g, x, y*) tovushlari kiradi.

Til orqa tovushlarining aniq talaffuzini hosil qilishda, asosan mexanik usuldan keng foydalaniladi. Bu tovushlarni hosil qilishda taqlid usulidan unumli foydalanish yaxshi natija beradi. Quyida keltirilgan o`yinlar taqlid qilish usuli orqali til tovushlaridagi kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan.

### «Nima qanday qichqiradi?»

**Maqsad:** Tovushlarga taqlid qilishda **K** tovushini aniq va to`g`ri talaffuz etish.

**O`yinning borishi:** Tarbiyachi bolalarga murojaat etib shunday deydi: «Esingizdam, bolalar, biz sizlar bilan o`rmonga sayrga borgan edik. Bizlar sayrga otlandik, yo`lda ketayotib, katta poliz yonidan chiqib qoldik. Qarasak,

chumchuqlar polizdagi kungaboqarlarni chuqishyapti, ularni bolalar haydab yuborishdi. Sizlar chumchuqlarni haydab yuborgan edingiz?» («kish-kish»).

Biz o`rmonga etib bordik. U er juda ham chiroyli edi, gullar tera boshladik. Birdaniga kakku sayray boshladi: «ku-ku, ku-ku...». Kakku qanday sayraydi? (ku-ku, ku-ku). Ko`p gullar terib orqamizga qaytdik. Ariq bo`yidan o`tdik. Qurbaqa qanday qurillaydi? (Kva-kva-kva).

**Metodik ko`rsatma:** Tovushlarga taqlid qilishda **K** tovushini aniq talaffuz etish lozim. **K** tovushini ovoz kuchi bilan ajratish kerak.

### «Telefon»

**Maqsad:** Bolalarni **G** tovushi bilan keladigan so`zlarni aniq va to`g`ri talaffuz etishga o`rgatish.

**O`yining borishi:** Bolalar stulchalarida bir qator bo`lib o`tirishadi. Tarbiyachi birinchi bo`lib o`tirgan bolaga so`zni pichirlab aytadi. U ham so`zni yonidagi bolaga shipshitib aytadi. SHu tariqa, aytilgan so`zni bir-birlariga pichirlab aytadilar. So`ngra so`zni birinchi bo`lib aytgan bola qatorning oxiriga borib o`tiradi. Bolalar oxirgi so`zni aytib bo`lganlaridan keyin ularga tarbiyachi rasm bo`yicha kichkina gap tuzishni taklif etishi mumkin.

**Metodik ko`rsatma:** «Telefon» o`yinini o`ynaganda bolalar so`zni bir-biriga pichirlab aytadilar.

### «Nima etishmaydi?»

**Maqsad:** **I** tovushi bilan keladigan bo`g`in, so`z, gaplarni to`g`ri va aniq talaffuz etishga erishish.

**O`yinning borishi:** Bolalar stulchalarida o`tirishadi. Tarbiyachi stol ustiga mayka, leyka, chayka, qo`y, yo`lbars, oy, toy, tramvay, soy rasmlarini yoki o`yinchoqlarni terib qo`yadi va bolalarga bu uyinchoqlarni diqqat bilan ko`rib olishni taklif etadi.

CHaqirilgan bola eshik orqasida turadi. Boshqa bir bola esa o`yinchoqlardan birontasini yashiradi, eshik orqasida turgan bola kelib qaysi o`yinchoq etishmasligini aytadi.

SHundan keyin tarbiyachi, nomida **I** harfi bor bo`lgan rasmlarni ko`rsatadi, bolalar ularning nomlarini aytadilar.

**Metodik ko`rsatma:** So`zlarni talaffuz etganda **I** tovushini ovozda ajratib talaffuz etish, **A** tovushini esa cho`zib talaffuz etmaslik lozim.

## **6. Tovushlarni avtomatizatsiya va differentsiatsiya qilish jarayonida qo`llaniladigan o`yinlar**

Nutqqa qo`yilgan tovushlarni avtomatizatsiya va differentsiatsiya qilish jarayonlari muhim ahamiyatga ega.

Bu jarayonlarga oid bir turdagи mashqlardan qayta-qayta foydalanish natijasida bolalarning logopedik mashg`ulotlarga bo`lgan qiziqishlari yo`qolib boradi.

Qiziqarli o`yinlar esa bolaga xushkayfiyat va tetiklik bag`ishlaydi. Demak, bu iboraga asoslanib, tovushlarni avtomatizatsiya va differentsiatsiya qilish jarayonida o`yinlardan foydalanish yaxshi samara beradi, degan fikrga kelishimiz mumkin.

Quyida esa tovushlarni avtomatizatsiya va differentsiatsiya qilish jarayonida qo`llaniladigan o`yinlardan namunalar keltiramiz.

### **«Rasmlarni tanla»**

**Maqsad:** S-SH tovushlarini bir-biridan farqlashga o`rgatish.

**O`yinlarning borishi:** Nomida S va SH tovushi bor bo`lgan rasmlar, so`zlar tanlanadi.

Tarbiyachi bolalarni ikki guruhga ajratadi, birinchi guruh bolalari S tovushi bor bo`lgan rasmlarni tanlab oladi. Ikkinci guruh bolalari esa SH tovushi bor bo`lgan rasmlarni tanlaydi. Tarbiyachining stoli ustiga rasmlar o`ng tomoni bilan tartibli qilib qo`yilgan bo`ladi. Har bir guruhdan bittadan chiqib, o`zlariga ta`luqli bo`lgan tovush uchun rasm olib, joylariga o`tiradilar. Hamma rasmlarni bolalar olib bo`lgandan so`ng, har bir bola o`rnidan turib, rasmlarning nomini aytadi.

Rasmlarni nomini aytganda S yoki SH tovushini boshqa tovushlardan ajratib talaffuz etishlari kerak.

Qolgan bolalar rasm nomini aytayotgan bola uni to`g`ri tanlaganmi yoki yo`qmi kuzatib boradilar. So`ngra bolalarning o`zлari shu tovushlar uchun so`z o`ylaydilar va aytadilar.

Tarbiyachi S va SH tovushlari bor bo`lgan so`zlarni aytadi, bolalar esa bu so`zlarni takroriy aytganda S-SH tovushini to`g`ri talaffuz etishlari kerak. Masalan, shosse, mashinist, SHamsiya, sherst' va boshqalar.

**Metodik ko`rsatma:** Bolalar so`zlardan S va SH tovushini ko`rsatib, boshqa tovushlarga nisbatan cho`zibroq talaffuz etishlari S va SH tovushi qaerda kelishini aniqlashlari lozim.

### **«Top-chi, menda qaysi tovush?»**

**Maqsad:** Z-J tovushlarini bir-biridan farqlashga o`rgatish.

**O`yinning borishi:** O`yinlarning boshqaruvchisi tayinlanadi. Boshqaruvchi eshikdan tashqariga chiqib turib, qolgan bolalar nomida **J** tovushi bor bo`lgan so`z o`ylab topadilar. O`yinni boshqaruvchi qaytib kelib, har qaysi bolaning yoniga boradi, u kimning yoniga borsa, shu bola o`ylagan so`zni aytadi. Agarda

boshqaruvchi aytilgan so`zlardan **J** tovushini eshitsa, «g`ing`illaydi» agar **Z** tovushini eshitsa, «zizillaydi», deb tushuntiradi tarbiyachi.

So`ngra tarbiyachi rasmlarni bolalarga tarqatib chiqadi. Har bir bola navbatma-navbat chiqib, rasmni bolalarga ko`rsatadi va uning nomini bildiruvchi so`zda **Z** tovushi bo`lsa, uni chivin rasmi tasvirlangan rasm polotnosи cho`ntagiga solib qo`yadi, agarda **J** tovushi bo`lsa qo`ng`iz rasmi tasvirlangan rasm polotnosи cho`ntagiga solib qo`yadi.

Mashg`ulotning oxirida tarbiyachi bolalarga bir necha so`zlarni aytadi va uni takrorlashlarini taklif qiladi: zajigalka, zanjir, jazo, jigarrang qo`ng`iz, g`ijjak, Zamiraning sariq jo`jası bor va boshqalar.

**Metodik ko`rsatma:** Agar bola **Z** yoki **J** tovushi uchun so`z topishda qiyalsa, tarbiyachi yordam beradi.

### «Adashma»

**Maqsad:** **S-Z** tovushlarini bir-biridan farqlashga o`rgatish.

**O`yinning borishi:** Bolalarga ikkitadan rasm beriladi. Bittasida nasos tasvirlangan, ikkinchisida chivin. Nasos tasvirlangan rasmni bolalar chap qo`llariga oladilar. CHivin tasvirlangan rasmni esa o`ng qo`llariga oladilar. CHivin tasvirlangan rasmni esa o`ng qo`llariga oladilar. Tarbiyachi nomida **S** yoki **Z** tovushi hamda bir so`zda **S**. va **Z**. tovushi bo bo`lgan rarsmlarni bolalarga ko`rsatadi va nomini aytadi. Masalan: sabzi, sumka, yulduz, gazeta, somsa va hokazolar.

Agar rasmning nomini bildiruvchi so`zlarida **S** tovushi bo`lsa, so`ngra bolalar nomini bildiruvchi so`zda har ikki tovush bor bo`lgan rasmlarni ko`rsatadilar va **S**, **Z** tovushlarida qaysi biri so`zning boshida kelayotganligini aytadilar.

**Metodik ko`rsatma:** **S** va **Z** tovushini rasmlar orqali taqqoslash kerak. Mashg`ulot paytida nomida **S** va **Z** tovushi bo`lgan rasmlardan ham foydalanish mumkin. Agarda tarbiyachi bolalarga bunday rasmlarni ko`rsatsa, bolalar qo`llaridagi rasmlarini ko`rsatmasliklari kerak.

### «O`rmonda sayr»

**Maqsad:** **SH-J** tovushlarini bir-biridan farqlashga o`rgatish.

**O`yinning borishi:** Xonaning bir burchagida bolalar turishadi, ikkinchi burchagida esa ikki-uch qator stulchalar qo`yilgan bo`lib, bular o`rmonni tasvirlaydi.

Tarbiyachi shunday deydi: «Bolalar hozir biz o`rmonga sayrga boramiz (ana u stulchalar turgan joyga). U erda o`tirib dam olamiz va o`rmonda nimalar bo`layotganligini kuzatamiz». Bolalar jimgina borib, stulchalarga o`tiradilar.

Tarbiyachi: «O`rmon juda sokin, shu payt mayin shabada esib, daraxtlarning shoxlarini tebrata boshlaydi. O`rmon bir zumda shovullay boshlaydi: «sh-sh-sh...». Daraxtning shoxchalari qanday shovullaydi? (Bolalar «sh-sh-sh») SHamol tindi, o`rmon yana tinch.

O`tloqda qo`ng`izlarning «j-j-j» deb g`ing`illashi eshitiladi. Qo`ng`izlar qanday g`ing`illashadi? (Bolalar «j-j-j»» deb aytadilar). Bolalar o`rmonda dam olishib, ko`p gullar terishib, uyga qaytishadi.

**Metodik ko`rsatma:** Bolalar ***SH-J*** tovushlarini bir-biridan farqlashlari uchun qo`l kafti orqa tomonini bo`yinga (tomoqqa) qo`yishlari kerak. Bolalarning hammasi bu mashqda faol qatnashishilari va ***SH, J*** tovushlarini bir-biriga aralashtrib yubormasliklarini tarbiyachi kuzatib turadi.

# BOLALARNI TA'LIM MUHITIGA MOSLASHTIRISH UChUN

## RIVOJLANTIRUVChI MASHG'ULOTLAR

### BIRINChI KUN

#### Umumiy yig'ilish

**Jixozlar:** magnitofon, Gullar shaxrining aholisi uchun taklifnomalar, bu taklifnomalar ota-onalar majlisida beriladi, shuningdek bolalar quvnok musiqasining fonogrammasi.

**Maqsad:** bolalarni his-hayajonli holatdan chiqarish, Gullar shaxridagi xayotning qoidalarini hamkorlikda ishlab chiqish, bolalarda bирgalikda ishlash malakasini shakllantirish.

Gullar shaxrida an'ana bo'yicha har o'quv kuni shahar maydonida boshlanadi. Hamma bolalar bir-birini ko'lini ushlab aylana bo'lib turadilar.

**Olib boruvchi:** Assalomu alaykum, kadrli bolalar. Viz sizlarni Gullar shaxrimizda kurib turganimizdan xursandmiz. Aytingchi, nima uchun bizning shaxrimiz shunday deb ataladi. Shaxrimiz yashovchilaridan kimni bilasiz? Xoxdaysizmi, men sizlarga aytib beraman?! (Gullar shaxri xakidagi afsonani uning axolisi nomidan aytib beradi).

#### Gullar shaxri haqidagi afsona

Bir ertak shaharda mitti odamchalar yashardi. Bizni mittilar deb atashardi, chunki biz juda kichik edik. Shahrimiz chiroyli edi. Har bir uyning oldida: qo'ng'iroqgul, moychechaklar, atirgullar, kungaboqarlar usardi. Bizda xatto ko'chalar ham gullarning nomi bilan atalardi. Qo'ngirokchalar ko'chasi, Moychechaklar shox ko'chasi, Gulsapsarlar xiyoboni. Shaharning o'zi esa Gullar shaxri deb atalardi.

Kichik odamchalar bir xilda emas edilar: ba'zilarini bolakay, ba'zilarini esa kichkintoy deb atashardi.

Qo'ng'irokchalar ko'chasi dagi bir uyda 16 ta bolakay - odamchalar yashardi. Ular orasida Bilag'on, shifokor Voyjonim, mashxur mexanik Vintik uzining do'sti Shpuntik bilan, Qiyom Qandovich Qandov, ovchi Xo'ra, muyqalam Buyoq, musiqachi Mashshok va boshka bolakaylor Shoshkalok, Ezma, Bilqildok, Xayolparast, ikki aka-uka - Xasan va Xusan. Ularning ichida eng mashxuri Bilmasvoy ismli bolakay.

Ma'lumki hamma kichkintoylar ham qachonlardir katta bo'ladilar. Biz Gullar shaxrining axolisi bilan ham xuddi shunday bo'ldi. Biz hammamiz o'sib ulrayib turli tomonlarga tarkalib ketdik. Lekin biz o'z shahrimizni juda sevganimiz uchun uni qarovsiz qoldira olmadik. Shaharda uning qo'riqchilari ya'ni biz qoldik. Bizning shaxrimiz oddiy emas - oz bo'lsada sexrli. Siz sehrgarlikka ishonasizmi?

Uzoq vaqtgacha biz shunday yashadik, do'stlarimizdan xatlar olardik, mehmonlarni qabul qillardik, hammasi yaxshi bo'lardi, lekin odamchalar o'z

shaharlariga kam kela boshladilar. Shahar ko'riqchilari g'amga botdilar. Gullar o'la boshladilar, shahar huwillab qoldi. Shundan so'ng biz sobiq yashovchilarga xat yozishga qaror qilib, kelgusida nima qilishimiz kerakligini so'radik.

Juda ko'plab xatlar keldi, lekin eng qizig'i Bilmasvoydan keldi. U Gullar shahri uchun yangi joy topishimiz kerakligini va unda yashash uchun 5 yoshdan 7,5 yoshgacha bo'lган kichkintoylarni chaqirishni taklif qildi. Kichkintoylar yangi gullarni o'stiradilar, shahar haqida g'amxo'rlik qiladilar, eski yashovchilari esa diqqat bilan shahar hayotini kuzatadilar. Bilmasvoyning shaxsan o'zi kelishini va yangi yashovchilari bilan uchrashishni va'da qildi. Shunday qilib siz bu erdasiz, Bilmasvoy esa har doimgidek yuk.

Bizning shaxrimizda, hamma erdagidek uylar va yo'llar bor. Yo'llarda odamlar nima qiladilar? To'ppa-to'g'ri, ular turli xil yul harakati vositalarida yuradilar. Siz qanday yul harakati vositalarini bilasiz? Keling, xozir shaxrimizning ko'chalarida trolleybusda yurishga harakat qilamiz. (Bolalar bir-birlari bilan tuknashib kuchada harakat qiladilar).

Bizda ko'p halokatlar ro'y berdi. Qishgacha etib bora olmaymiz. Kelinglar, buni boshqacha yul bilan xal qilamiz. Buni qanday qilishni maslahat qilib ko'ringlar. Maslaxatlashish nima ekanligini bilmaysizlarmi? Maslaxatlashish - bu demak boshqa odamlarning ham fikrini tinglamok. Bunday qilish uchun uncha katta bo'limgan guruhlarga birlashamiz.

Guruhlarga ajratshni turli xil usullar bilan o'tkazish mumkin (ilovaga qarang). Ushbu holda, vaqt ni ketkazmaslik uchun bolalarni turgan joylarini o'zida ya'ni olib boruvchining oldida yoki yordamchining oldida turganligiga qarab bo'lib chiqish mumkin, chunki ushbu guruhlarda olib boriladigan ishlar ko'p vaqt ni talab qilmaydi. Guruxlar shahar bo'ylab harakatlanishning o'z usullarini namoyish qiladilar (o'ng tomonlama harakat). Eng xavfsiz bo'lgan usulni qabul qilinadi.

Sizni qanday ishlaganingiz menga juda yoqdi. Lekin bizning shahrimizda ko'p narsa tushunarsiz va murakkab bo'lganligi sababli men sizlarni hoziroq bu erga krita olmayman. Bilmasvoy shaharga maxsus ruxsatnomasi bo'limganlarni kiritmaslikni tayinladi. Bunday ruxsatnomani olish uchun mexnat qilish kerak. Mexnat qilishga kim tayyor va qiyinchiliklardan kurkmaydigan bo'lsa - bir qadam oddinga!

Bolalar bir kadam oldinga chikadilar.

Unda boshlaymiz!

Aytingchi bolalar, shaxrimiz ko'chalarida halokatlar sodir bo'lishining oldini olish uchun nima yordam beradi? Albatta svetofor yordam beradi. Svetoforning qanday signallarini bilasizlar? Kelinglar hozir biz «uylarimizga» berkinamiz («Uylar»-bu har bir gurux uchun mo'ljallangan shartli joy), svetoforning signaliga muvofik ko'chaga chiqamiz va «uylarimiz» bilan almashamiz.

Bolalar «uy-uylariga» tarkaladilar. Quvnok musiqa yangraydi, bolalardan biri o'z «uyidan» chiqadi, musiqa to'xtaydi.

Aytingchi bolalar, nima uchun qochib chiqdingiz? Axir, yashil signal yonmadiku? Bo'lmasa nima bo'ldi? (Bolalarning javoblari). Demak bizga

shaharda svetoforlar kerak emas ekan, faqatgina diqqat bilan musiqani eshitsak bo'lgani. Musiqa bizga nima demokchi? U bizni qachon ko'chaga chiqishimiz mumkinligidan xabardor qiladi. Kelinglar, yana bir marotaba takrorlaymiz.

Musiqa quyiladi, bolalar xonada harakat qiladilar, musiqa to'xtaydi, bolalar «uylariga» chopib ketadilar.

Barakalla! Endi siz shaxrimizda qanday qilib xavfsiz harakat qilishni bilib oldingiz. Endi, bir-birimiz bilan tanishish vaqt keldi. Kelinglar xozir men «uch-turt» deyishim bilan hamma birgalikda o'z ismini aytadi. Shunday qilib tayyorlandik, uch-turt!

Bo'ldi-bo'ldi tushundim! Bu Vali (qiz bolani ko'rsatib). bu erda Kamola va Nargiza (o'g'il bolalarni ko'rsatadi). Nima uchun sizlar kulyapsizlar? Men noxakmanmi? Yuk? Ko'rib turibmanki, men sizlarni epolmas ekanman. Tanishish uchun uylarga tarqalamiz. Bugun uylarimizga kemalarda boramiz (Ilovaga qarang: Yoqimlilik bo'yicha guruxlarga bo'lib chiqish, taxminan olti kishidan bo'lib chiqiladi).

Musika yangraydi, bolalar birinchi mashg'ulotga boradilar.

## Birinchi mashg'ulot Tanishuv

**Jihozlar:** tashrifnomalar (vaktinchali), flomasterlar (guruxga bir dona), qo'ng'iroqcha, «Men» belgisi.

**Maqsad:** bolalarni bir-biri bilan va o'qituvchilar bilan tanishtirish; bolalarni navbat bilan fikrlarini aytishga o'rgatish: ularni qisqa xikoya tuzishga o'rgatish (2-3 ta gapdan iborat).

### Mashg'ulotning borishi

*Salomlashuv.*

*Olib boruvchining o'zi haqidagi hikoyasi.*



Bolalar sinfga kiradilar va guruxlar buyicha o'tiradilar (har birida olti kishidan iborat 3 ta gurux va yoshi kattarok 1 kishi-yordamchi). Olib boruvchi bolalar bilan salomlashadi, o'zini tanishtiradi, o'zi haqida ozgina so'zlab

beradi (nimani yaxshi ko'radi, nimani yaxshi kurmaydi, uning uy xayvonlari bormi va x.k.). U bolalarga savol berishlari mumkinligini aytadi.

### ***Tanishish usulini tanlash***

Olib boruvchi bolalarga umumiyligida tanishishga harakat qilganliklari xakida eslatib o'tadi.

***Olib boruvchi.*** Sizlar men xaqimda ko'p narsalarni bilib oldingiz, men esa siz va sizlar esa bir-biringiz haqingizda deyarli xech narsa bilmaysizlar. Kelinglar tanishamiz.

Umumiy yig'ilishda hammangiz baravariga gapirdingiz, ya'ni jamoa bo'lib. Nima uchun tanishuvimiz o'xshamay qoldi? qanday qilib tanishish mumkin?


Bolalar o'z variantlarini taklif qiladilar. Olib boruvchi navbat bilan tanishishni taklif qiladi.

Kelinglar bunday tanishamiz: kimdir o'zini birinchi bo'lib tanishtiradi, keyin buni uning chap tomonidagi ko'shnisi bajaradi, shunday qilib butun aylana buylab davom etadi. Dar bir guruxdan birinchisini qanday qilib tanlaymiz?

### ***Bayon etish navbatini o'rnatish. Guruh tashqil qilishning boshlanishi***

Bolalar olib boruvchi bilan hamkorlikda guruh sardorini saylab olishni taklif qiladilar. Bular: ovoz berish, qur'a tashlash, sanoq, pantomima, xoxish bo'yicha va x.k. Olib boruvchi pantomima nima ekanligini va uning yordami bilan qanday tanishish mumkinligi haqida tushuntiradi. U qisqa pantomimani ko'rsatib beradi: ko'kragiga uradi (men birinchi bo'laman) va «Men» belgisini ko'taradi.

Bolalarni sinfdagi joylashuv sxemasi



***Olib boruvchi.*** Sizlar nima deb o'ylaysizlar, mening boshqa belgim nimani anglatadi? (Qo'li bilan bolani ko'rsatib) Bu kichkintoy birinchi bo'ladi.

Keyin olib boruvchi bolalarga orka qilib beshgacha sanaydi. Bu vaqtida har bir guruh maslaxatlashib olib, o'z ismini birinchi bo'lib aytishini kelishib oladi. «Besh» deganda har bir guruxning birinchisi o'rnidan turadi.

### ***Guruhlardagi tanishuv***

Guruxlarda tanishuv olib boruvchining signali buyicha boshlanadi (Qo'nrirokchaning ovozi). Birinchi bola o'z nomini aytadi, uning ketidan aylana bo'ylab qolgan bolalar ham xuddi shunday qiladilar. Guruhdagilar shivirlab o'z ismlarini kaytaradilar. Olib boruvchi qo'nriroqni chalganida, hamma jimib qoladi. Bolalarni tanishtirishda yoshi kattaroq yordamchi tashrifnomalarga imzo qo'yib turadi va «odamchalar»ning ko'kraklariga qistirib qo'yadi.

### ***Guruhlar taqdimoti***

Olib boruvchi qo'ng'iroqning signali bilan bir vaqtida guruhlardan birini ko'rsatadi. Ushbu guruhdan birinchi bola o'rnidan turadi, o'zini va guruhni har bir a'zosini tanishtirib chiqadi.

Hamma guruh jamoa bo'lib har bir ismni aytib chiqadi.

### ***Kamyob ismlar***

Olib boruvchi o'zining ismi nimani anglatishini, nima uchun uni shunday deb ataganlarini, so'o'ngra bolalar bilan birgalikda guruhlardagi qaysi ismlarni kamyob deb atash mumkinligi haqida tushuntiradi. Keyin ismlarning tarixi o'zlariga ma'lum bo'lganlari, shular haqida gapirib beradilar. Yakunlash oldidan olib boruvchi bolalarga ota-onasidan nima uchun unga shunday ism bergenlarini, uning ismining ma'nosi nima ekanligini bilib kelishni uy vazifasi qilib topshiradi.

### ***«Ismli parovozcha» o'yini***

Hamma bolalar markaz tomonga qarab aylana bulib turadilar. Ishtirokchilardan biri o'z hohishi bilan parovozcha bo'lismeni aytadi (Ehtimol olib boruvchining o'zi bo'lar). Pixillab, ovoz chiqarib, porshenlarni g'ichirlatib, aylana bo'ylab harakatlana boshlaydi va o'yin ishtirokchilaridan birining oldida to'xtaydi.

- Salom, - deydi parovoz, - men Po'latman!
- Salom Po'lat! Men Madinaman!

Parovoz Madina bilan salomlashadi, vaqtı-vaqtı bilan goh ung, goh chap qo'lini ko'tarib, «Madina», «Madina» deb qichkirib qo'yadi. Hamma bolalar «Madina» deb qaytaradilar. Shundan so'ng Madina Po'latni belini ikki qo'li bilan ushlab xuddi tirkakli vagonni tasvirlagandek ular ikkalalari yangi tanishuvni izlab aylana bo'ylab harakatlana boshlaydilar.

- Salom, biz Po'lat va Madina!
- Salom, men esa Jasur!...



## **Ikkinchı mashg'ulot.**

### **«Men» va «Jamoा» belgilari**

**Jihozlar:** «Men» belgisi, «Jamoा» belgisi, koptokcha.

**Maqsad:** bolalarga javobning mumkin bo'lgan ikki xil shaklini kursatish: yakka va guruhli, «Men» va «Jamoा» belgisi bilan tanishtirish

### **Mashg'ulotning borishi**

#### **«Men» va «Jamoा» belgilari bilan tanishuv**

**Olib boruvchi.** Men bilanmanki hamma kichkintoylar topishmoq topishni juda yaxshi ko'radilar. Bugun men sizlarni Gullar shaxrining munosib aholisi bo'lishingizni xohlayman. Hozir men sizlarga topishmoqlar beraman, siz esa ularni topishga harakat qiling.

Davolaydi kichkintoy bolalarni,  
Davolaydi qushlar va hayvonlarni,  
Kuzoynak orkali qarar  
Muloyim shifokor.... (Voyjonim)

Jamoа bo'lib javob berishni qanday bilib oldingiz? Keling yana bir marta harakat qilamiz! Birgalikda Qarlson bilan sakradi tomdan, To'polonchimiz bizning.... (Kichkintoy)

U chiroyli va muloyim,  
Yarqiragan oy misol, ismi uning.... (Zumradoy)

**Olib boruvchi.** Nima uchundir bu gal unchalik o'xshamay qoldi. Demak har doim ham topishmoqlarni jamoa bo'lib topib bo'lmas ekan. Quyidagi savollarga javob berishga harakat qiling.

Aytingchi, siz qaysi shaharda yashaysiz?  
Qaysi ko'chada yashaysiz?

Mashinaning qaysi markalarini bilasiz?

Men yana hech narsani tushuna olmay qoldim. Nima qilmok kerak? Menda qadimgi kukrak nishonlari bor, men ularni eski shkafdan topib oldim, lekin hozir ularni nimani anglatishini eslay olmay qoldim.

Kelinglar birgalikda aniqlaymiz.

Olib boruvchi «Men» va «Jamoa» belgilarini ko'rsatadi.

Bolalar bu belgilar nimani anglatishi haqida o'zlarining naqllarini ayta boshlaydilar.

Gullar shaxridagi maktabda shunday qoida bor: qandaydir ishlarni bolalar birgalikda, ahillik bilan jamoa bo'lib bajaradilar («Jamoa» belgisini ko'rsatadi), lekin nimalarnidir mustaqil o'zлari bajaradilar («Men» belgisini ko'rsatadi). Hozir men sizlarga savollar beraman va ushbu belgilardan birini ko'rsataman. Diqqat bilan qarang, qachon xor bulib javob berish kerak, qachon esa qo'lni ko'tarib yakka javob berish kerak.

Olib boruvchi savol beradi (rasmlarni ko'rsatadi) va belgilardan birini ko'rsatadi.

Bobo bilan buvining hamirdan yasagan ertak qahramonining nomi nima? («Jamoa» belgisi).

Bo'g'irsoqning quyondan ham, ayiqdan ham qochib keta olgani haqiqatmi? («Jamoa» belgisi).

Qanday ertak qahramonlarini bilasan? («Men» belgisi)

Jirafaning buyni hammadan ham uzunligi to'g'rimi? («Jamoa» belgisi).

### **Javob shaklini vazifaning shakliga qarab aniqlash.**

Olib boruvchi rasmni ko'rsatadi va gapiradi: «Ushbu qahramonning nomini jamoa bo'lib aytinlar».

**Olib boruvchi.** Qanday bildinglar jamoa bo'lib javob berish kerakligini? Axir men sizlarga xech qanday belgi ko'rsatmadimku?! Sizlar juda ziyraksizlar! Haqiqatdan ham vazifani ziyraklik bilan eshitsangiz jamoa bo'lib yoki yakka javob berish kerakligini bilib olasizlar.



### **Diqqat ordenini kiritish haqida**

**Olib boruvchi.** Bilmasvoy bizdan eng ziyrak kichkintoylarga mana bunday ordenlarni taqdim etishimizni so'radi. Bu diqqat ordeni. Kelinglar o'yin o'ynaymiz. Men har bir guruhga savol beraman va koptokni tashlayman.

Agar savolga jamoa bo'lib javob berish kerak bo'lsa, siz savolga o'tirib javob berasiz, bunda koptokni ilib olmaysiz.

Agar men savol bersam va unga yakka javob berish kerak bo'lsa, javobini bilishini menga belgi bilan ko'rsatib javob bermoqchi bo'lganga koptokni otaman.

Kim biladi, hozir yilning qaysi vaqt?

Jamoa bo'lib aytinglarchi yilda necha oy bor?

Kim biladi, nima uchun qushlar issiq tomonlarga uchib ketadilar?

## Uchinchi mashg'ulot

### «Roziman» va «Noroziman» belgilarining kiritilishi

**Jihozlar:** maktab vaqtini lentasi, ikki xil rangli QOG'oz bo'laklari (har bir bola uchun komplekt), har bir bola uchun oq qog'oz, qaychi, elim.

**Maqsad:** bolalarni bir-biri bilan tanishtirishni davom ettirish; bolalar uchun yangi tinglovchilar -bolalar auditoriyasini ochish; bolalarni tinglashga va tengdoshlari bilan munosabatda bulishga o'rgatish; o'kuv motivasiyasi bo'yicha dastlabki tashxisni o'tkazish.



## Mashg'ulotning borishi

### «Roziman», «Noroziman» belgilarining kiritilishi

**Olib boruvchi.** Gullar shahrining axolisi doimo bir-biriga yordam berib kelishardi, ular bunga hamma kichkintoylarni o'rgatishardi. Darsda kimdir javob bersa, ular kaftlarini ochib unga mana bunday (olib boruvchi ochik kaftini bolalar tomoniga qaratadi) qilib ko'rsatadi - bu degani demak hammasi yaxshi. Ba'zan esa kaftlarini mana bunday qilib ochardilar (olib boruvchi qo'llining tashki tomonini bolalar tomon qaratadi) - bu demak javobda nimadir noto'g'ri. Kelinglar, biz ham bir-birimizga nisbatan ziyrak bulishga harakat qilaylik.

### **«Chigallashuv» o'yini**

Olib boruvchi turli xil harakatlarni bajaradi: bolani ko'rsatib xohlagan ismni aytadi; qandaydir tasdikni aytadi va h.k. Bolalar belgilar yordamida olib boruvchi bilan rozi yoki rozi emasliklarini bildiradilar.

O'yin jarayonida olib boruvchi belgilar kimga qaratilganiga e'tibor beradi. Olib boruvchi turli bolalarga savollar beradi, boshqalar savollar yordamida javoblarga qarab turadilar.

Masalan: Bu qizning ismi ... (xohlagan ismni aytadi). Aytchi, bu bolaning ismi nima?

Agarda bolalar belgilarni olib boruvchiga ko'rsatsalar, bunda bolalar belgilarni javob beruvchiga qaratishi kerakligiga e'tiborini qaratiladi.

### **«Ha» va «Yuq» demang, qora va oqni olmang» o'yini**

Xohlagan savol beriladi. Masalan:

Sen hozir uxlayapsanmi?

Shifokor bolalarni sochini oladimi?

Kechasi quyosh porlaydimi?

Sen muzqaymokni yaxshi ko'raskanmi?

Qishda issiqmi?

Konfet shirinmi?

Tipratikon tikonlimi?

Quyosh ko'm-ko'kmi?

Sening dadang qo'g'irchok o'ynaydimi?

Yozda chang'ida yuradimi?

Muz issiqmi?

Sen suzishni bilasanmi?

Javoblarda «ha», «yo'k», «qora», «oq» so'zlari bo'lmasligi kerak. O'yinni yoshi katta odam boshlaydi. U savol beradi, kim javob berishini ko'rsatib turadi.

Boshkalar javobni belgilar orqali baholab turadilar.

Keyinrok o'yinni bolalar davom ettiradilar. Har bir guruh boshqa guruqlar uchun 3 tadan savol o'ylab topadi.

### ***Maktab vakti lentasi bilan ishlash***

Yoshi katta odam bolalarning diqqatini maktab vaqtini lentasiga qaratadi. Qizil rang bilan darslar, sariq rang bilan tanaffuslar belgilab qo'yilgan. Darslar bilan tanaffuslar oraligi qo'ng'iroklar bilan ajratilgan.



## O'kuv kuni rejasি

**Olib boruvchi.** Har bir odam ham xuddi shunday o'ziga yoqqan o'kuv kunining rejasini tuzib olishi mumkin.

.Kimdir o'kuv kuni faqatgina darslardan iborat bulishini xohlasa, unda u faqat qizil rangli QOG'OZ bulakchasini yopishtiradi.

Kimdir esa faqat tanaffusdan iborat bulishini xohlasa faqat sariq rangli QOG'OZ bulakchasini yopishtiradi.

Kimdir darslarning uzun va tanaffuslarning qisqa bo'lismeni xohlasa uzun qizil rangli QOG'OZ bo'lakchasi va qisqa sariq rangli QOG'OZ bulakchasidan yopishtirishi mumkin.

## To'rtinchi mashg'ulot.

### Bir varaq qog'ozda mo'ljal olish

#### «Oddiy qalam» belgisi

**Jixozlar:** qo'ng'iroqcha, «Yo'lchalar» nusxasi (bolalar soni buyicha), «Oddiy qalam» belgisi, «Men» belgisi.

**Maqsad:** bolani bir varaq qog'ozda mo'ljal ola bilish klinikmalarining dastlabki tashxisini o'tkazish; grafik diktant bajarishni o'rgatish (erkinlikni rivojlantirish); lineykalar yordamida ishni o'zi baholash usulini kiritish.

### Mashg'ulotning borishi

#### Tashqiliy qism

Tanaffus vaqtlarida olib boruvchi doskaga «Oddiy qalam» belgisini ilib qo'yadi va unga bolalardan diqqatlarini qaratishni so'raydi. Bu belgi bolalarni oddiy qalam yordamida ishga jalb etishi lozim.

#### Barmoqlar gimnastikasi

**Olib boruvchi.** Bizning barmoqlarimiz bugun yaxshi ishlashi uchun, kelinglar gimnastika qilamiz. Buning uchun kaftlariningizni tayyorlang va mening ortimdan so'zlarimni takrorlang.

Biz qaramlarni kesamiz (kaft suyaklarini stolga xuddi pichoq singari 3 marotaba uradi), biz qaramni to'zlaymiz (barmoqlarni xuddi tuz sepganday 3 marotaba harakatga keltiriladi), biz qaramni g'ijimlaymiz - g'ijimlaymiz

(mushtini 3 marotaba yumib-ochadi), biz qaramni qiramiz (kaftlarini 3 marotaba bir-biriga ishkalaydi).

«Yullarda yurish» (qo'lning mayda motorikasini rivojlantirish testi).


Har bir bolaga «yo'llar» nusxasidan beriladi (rasmga qarang). Olib boruvchi savollar yordamida suhbat o'tkazadi.

Kim menga aytadi, biz gullar shahrining yullarida nimada sayr qilamiz?

Yullarda chizilgan transport vositalarining xillarini ayting (samolyot, vertolyot, velosiped).

Nimada sayoxat qilish murakkabrok? Nima uchun?

Qaysi yuldan yurgan engilrok? Nima uchun?



### ***Yo'rinqoma***

Tasavvur qilingki, siz avtomobil rulini boshqaryapsiz, sizning kuragingiz mashina o'trigichining suyanchig'iga tegib turibdi.

Oyog'ingiz polda qattiq turibdi.

«Yullar» varag'i parta ustida ozgina chapga burib qo'yib qo'yilgan, burchagi esa ko'kragingizga qarab turibdi.

Bosh oldinga ozgina egilgan.

Yulda chapdan o'ngga qarab harakat qilish kerak.

Yulning o'rtasidan, chetlariga chiqib ketmasdan yurish kerak.

Qalamni qog'ozdan uzmaslik kerak.

QOG'ONI qimirlatmaslik va orqasini o'girmaslik kerak.

Olib boruvchi qalamni qo'lda tug'ri turganiga ahamiyat beradi.

Sizdan boshka yana mashinada hamma oila a'zolari ona, ota, buvi va bobo boradilar.

Olib boruvchi barmoqlari bilan kursatadi VA aytadi.

Bobo bilan buvi keksa, ular orka o'rindiqda boradilar va rulni ushlamaydilar. Barmoqlaringizni buking.

Ota - oila boshlig'i, uning tayanchi. U rul - qalamni ushlab ketadi. Qalamingizni o'rta barmog'ingizga qo'ying.

Ona va o'g'il otaga yordam beradilar va rulni tepasidan ushlab ketadilar.

Olib boruvchining qo'ng'iroq chalishi bilan bolalar vazifani bajaradilar. Olib boruvchi tomonidan bolalarni qo'nish va ko'lda qalamni tutish koidalari tekshiriladi.

### Fizkult daqiqa

**Olib boruvchi.** Hozir men harakatlarni ko'rsataman va ularni aytaman. Meni ketimdan qaytaring. Diqqatli bo'ling. Men aytgan harakatlarni qiling.


Masalan: O'ng qo'l o'ng tarafga, chap qo'l chap tarafga, ikkala qo'l yukoriga, ikkala qo'l belga, chap qo'l chap tarafga, o'ng qo'l o'ng tarafga, ikkalasi yuqoriga, ikkalasi belga.

Sungra olib boruvchi bolalarni chalg'ita boshlaydi, uning harakatlari aytganlari bilan tug'ri kelmay qoladi.

Olib boruvchi eng ziyraklarni taqdirlaydi.

**Bir baraq qogozda mo'ljal olish**

Bolalarga belgi qo'yilgan katak varaklar tarkatiladi.



**Olib boruvchi.** Nuqtalar qo'yilgan varaqlarda men hozir aytmoqchi bo'lgan narsani chizish kerak, qaerda chizish kerakligini siz meni diqqat bilan tinglaganingizdan so'ng bilib olasiz.

1.Kuz boshlandi, gullar so'lidi. Oddiy qalam bilan qog'ozning o'ng burchagining tepe qismiga gul rasmini chizing.

2.Kuzda daraxt barglari ranglarini o'zgartiradi va to'qiladi. Chap pastki kismning burchagiga barg chizing.

3.Biz yoz kelishini kutamiz, chunki bu vaktda quyoshli kunlar keladi. Chap yuqori qismiga quyosh rasmini chizing.

4. Qachonki quyosh mo'ralasa, biz xursand bo'lib ketamiz. Quyoshning kulib turganini o'ng pastki qismiga chizing.

Olib boruvchi doskani ochadi, bolalar esa o'z chizganlarini namuna bilan taqqoslaydilar.

### Grafik diktant

**Olib boruvchi.** Hozir biz naqsh chizamiz. Varaqda turgan nuktadan boshlash kerak. Naqshning chiroyli va tartibli bulishi uchun harakat qilish lozim. Buning uchun meni diqqat bilan eshiting. Men chizikni kaysi tarafga va nechta katakchaga chizish kerakligini aytaman. Uni utkazib bulgandan keyin yana nimani chizishni aytmagunimcha kutinglar. Keyingi chiziqni avvalgisi tugagan joydan boshlash lozim, qalamni qog`ozdan uzmagan xolda.

O'ng qo'l qaerdaligini hamma biladi. O'ng qo'lingizni o'ng tarafga uzating. Men:

«Bitta katakcha o'ngga» - siz chiziqni o'ng tomonga 1 ta katakchaga o'tkazasiz. O'ng tomonga chiziqni qaysi tarafdan o'tkazishingizni qo'lingiz bilan ko'rsating.

Naqshni chizishni nuqtadan boshlaymiz. Qalamni bitta nuqtaga quying. Diqqat! Chiziqni chizamiz -1 ta katakcha yuqoriga. Qalamni qog`ozdan uzmang. 1 ta katakcha o'ngga. 1 ta katakcha pastga. Bittasi o'ngga, bittasi pastga, keyingilarini o'zingiz davom ettiring.

### Baholash usulini kiritish

**Olib boruvchi.** Biz birinchi ishni bajardik. Kichkintoy odamchalarimiz uzlарини baholashни juda yaxshi biladilar. Bunda ularga sehrli chizg'ich yordam beradi. Biz shunday chizg'ichni chizib olishimiz kerak. Men sizga yordam beraman.

Qalamingizni naqsh chizishni boshlagan nuqtaga quyib olasiz. Pastga ikkita katak sanaysiz va nuqta qo'yasiz. Ushbu nuqtadan 4 ta pastga chiziq o'tkazamiz, nuqta qo'yamiz. Pastki nuqtadan 2 ta katak yuqoriga ko'tarilasiz va chiziqcha qo'yasiz.

Bizda sehrli chizg'ich hosil bo'ldi. Shunday chizg'ichlar yordamida biz o'z ishlarimizni baholaymiz.

Agar sen naqshni juda-juda chiroyli deb hisoblasang, undan ham chiroylisi bo`lmaydi, bu yeriga belgi - baho quyasan (chizg'ichning eng yuqorisiga).

Agarda sen naqshni chiroyli chizilmagan deb hisoblasang, yomon, lekin undan ham yomonrosh bo`lishi mumkin, chizg'ichning pastki qismiga o'z bahoingni quy.

Agarda sen nasqhni chiroyli bajarilgan, lekin bundanda yaxshiroq chizish mumkin edi deb hisoblasang, chizg'ichning yuqori qismiga o'z bahoingni qo'y.

Kichkintoylar ishlarini qanday baholashlari tushunarlimi? Hozir esa har bir odam o'z ishini baholaydi.

Bolalar o'z ishlarini baholaydilar va ularni olib boruvchiga topshiradilar.

## Kayfiyat gulbarglarini tanlash

**Olib boruvchi.** Bizning birinchi gullarimizni o'tkazish vaqtি keldi. Lekin bu gullar oddiy emas, ularning gulbarglari bugungi sizning kayfiyatingiz kabi. Kimning kayfiyati qandayligiga qarab o'sha rangdagi gulbargdan oladi.

So'ogra olib boruvchi bolalarni kayfiyat gullari bilan tanishtiradi:

- Qizil - ko'tarinki;
- Sabzirang - quvnoq;
- Sariq - yorkin, yokimli;
- Yashil - hotirjam, bir tekis;
- Ko'k - xafa;
- Siyohrang - havotirli;
- Oq - qandayligini aytish qiyin.

## IKKINChI KUN

### Yalpi yig'ilish

**Jixozlar:** «Jamoa» va «Men» belgilari, o'yinchoqlar (guruxlar soniga qarab).

**Maqsad:** Birinchi kun o'tilgan belgilar bilan ishslash qoidalarini yodga olishadi. Kattalar bolalarni kutib olib, shahar maydoniga kuzatib quyishadi. yig'ilish olib boruvchisi bilan birga Bilag'onlar bolalar oldiga tashrif buyuradi (Bilag'onlar rolini olib boruvchining yordamchilari ijro etadi va ularga turli xil o'yinchoqlar bilan yordam beradi).

**Olib boruvchi:** Salom bolalar! Viz sizlar bilan ko'rishib turganimizdan xursandmiz. Qaranga, bugun kim tashrif buyuribdi! Bular ham bizning mehmonimiz. Kelinglar, ularni qanday nom bilan chaqirishlarini bilib olamiz. Qaranglar, bizning mehmonlarimizni Bilag'onlar deb chaqirishar ekan. Ularning tasdiqlashlaricha, ular hamma narsani bilishar va hech qachon biron bir narsa haqida so'rashmas ekan. Ular o'zlarini biz bilan safarga olib ketishimizni iltimos qilishyapti. Nima deb o'ylaysizlar ular biz bilan safarga borishga arziydimi?

Kelinglar, mehmonlarimizga biz ham ko'p narsa bilishimizni ko'rsatamiz.

Kim menga aytadi, bu nima:

Kechkurun no`xat sochilar,  
Ertalab tursam - yuqolar.

Olib boruvchi savollarga javob berish qoidalarini eslagan bolalarga e'tibor qaratadi.

Bilag'onlar javoblarni davrada turib baland ovozda aytishadi.

**Olib boruvchi:** Bilag'onlar! Bolalarga qarang ular ham nimanidir bilishadi. Balki ulardan so'rab ko'rarsizlar, nima uchun ularda yaxshi chiqayapti?

Bilag'onlar hammasini tushunishganini va tuzatishga harakat qilishlarini aytadilar.

**Olib boruvchi:** Jamoa bo`lib javob bering, bu nima:

Ikkita oxiri, ikkita uzugi - o`rtasida mixcha.

Bilag'onlar qo'llarini cho'zishadi, lekin tushunishadi, nimadir ularda chiqmayapti va sal bezovtalanishayapti.

**Olib boruvchi:** Bilag'onlar nimaga jim bo`lib qoldingiz? Biz bilan birga javob bering. Faqat e'tiborlirok, bo'ling! Bir xافتada necha kun bor?

Olib boruvchi «Jamoa» belgisini ko'taradi.

Bolalar jamoa bo`lib javob berishadi.

Bilag'onlar o'rinalidan turib baland ovozda: «Men bilaman! Men bilaman! - bolalarga qarab jim bo'lishadi. - Lekin men rostdan ham bilaman».

**Olib boruvchi:** Bolalar ham javobini bilishadi. lekin ular sizlarga o'xshab baqirishmayapti. Kelinglar yana bir marotaba takrorlaymiz. Qanday multfilmlarni ko'rishni yoqtirasiz?

Olib boruvchi «Men» belgisini ko'taradi.

Bolalar qo'larini ko'tarishadi va javob berishadi.

**Olib boruvchi:** Bolalar javoblarga qo'shilasizlarmi?

**Bilag'onlar:** Men bu multfilmni ham kurganman. Zo'r! va x.k.

**Olib boruvchi:** Bilag'onlar qayg'urmang. Sizlar faqat biz bolalar bilan nima haqida kelishib olganimizni bilmaysizlar. Bilmaslik uyat emas? Bolalar bu belgilar nimani anglatishini bilag'onlarga tushuntiramiz. Kim aytadi bu qanday belgi?

Bolalar «Men», «Jamoa», «Roziman» va x.k. belgilari nimani anglatishini tushuntirishadi.

Bilag'onlarni biz bilan borishga ruhsat beramizmi? Ular bizga yulda pand berib quyishmaydimi?

Bolalar bilag'onlarni birga borishga ruhsat berishadi: Qo'yavering Gullar shaxrining haqiqiy yashovchisi bo'lishni o'rganishadi.

Kelgusi sayohatimizgacha biz guruhlarni shakllantirishimiz kerak.

Bolalar guruhlarga bo`linishadi.

## Birinchi mashgulot

### Tanishuv

**Jixozlar:** «Diqqat» ordeni belgisi, oq qog'oz (bolalar soniga qarab), devor taxtasida tasvirli belgilar «Oddiy qalam».

**Maqsad:** Bolalarni bir biri bilan tanishtirishni davom ettirish, bolalarning belgilar bilan ishlash bilimini shakllantirish.

## Mashg'ulotning borishi

### Tashqiliy qism

Olib boruvchi bolalar diqqatini taxtachada turgan qalam rasmi bor belgiga qaratadi: «Topinglarchi, dars tayyorlash uchun nima kerak».



#### «Qor uyumi» o'yini

**Olib boruvchi:** Bugungi mashg'ulotimizda biz bir birimiz bilan tanishuvni davom ettiramiz. Kim menga aytadi, buni qanday bajaramiz?

Javobdan keyin taxtachaga «Biz» belgisi yopishtiriladi.

**Olib boruvchi:** Sizlarga qo'shilaman! Guruhlarda tanishgan qulayroq.. Buning uchun sizlarga «Qor uyumi» o'yinini o'ynashni taklif etaman.

O'yin qoidalari quyidagicha. Birinchi ishtirokchi o'z ismini aytadi. Ikkinci ishtirokchi birinchi ishtirokchi ismini va o'zini ismini aytadi va x.k., masalan: birinchi ishtirokchi o'z ismini «Lobar», ikkinchi ishtirokchi - «Lobar, Anvar», uchinchi ishtirokchi - «Lobar, Anvar, Kamola» va x.k.

Oldin birinchi ishtirokchini tanlab olish kerak. Guruhlar bu ishni qo'ng'iroqcha orqali amalga oshirishadi. Ikkinci marotaba chalingan qo'ng'iroqdan keyin tanlangan ishtirokchi o'rnidan turadi.

Hozir qo'ng'iroqcha chalinadi va o'yin boshlanadi.

Guruh o'yinni tugatganidan so'ng o'yinni davom ettirish uchun belgini ko'rsatishi kerak (bolalar bir birlarini qo'llaridan ushlab yuqoriga ko'tarishlari kerak).

O'yin davomida va uyinga tayyorlanish paytida diqqat bilan ishtirok etgan guruxlarga «Diqqat» ordenini topshiradi.

**Olib boruvchi:** Endi bizning guruhda o'tirgan bolalarga qarang. Qo'ng'iroq chalinib bo'lgunga qadar birortangizni ko'zingizni qidirib toping. «bir, ikki, uch»gacha sanalgandan so'ng bir-biringiz bilan o'rin almashing.

«Qop parchasi» uyini qaytariladi.

### ***Yo'llarda tekshirish***

**Olib boruvchi:** Bizning bilag`onlar bugun sizlar bilan bir guruxda ishlaydigan bolalar ismini yaxshilib eslab qolganligingizni tekshirishmoqchi. Bilago`n ismni aytadi. Agar bizning guruxda shunday ismli bolakay bo'lsa guruxdagi hamma bolalar qo'llarini shu bolakayning elkasiga qo'yishadi. Qolgan bolalar uning ismini eslab qolishga harakat qilishadi.

Kim biladi, agar bilag`on aytgan ism sizning guruhingizda bo'lmasa nima qilish kerak? To`g'ri, «Rozi emasman» belgisini ko'rsatish kerak.

### ***Yaxshi ko'radi -yaxshi ko'rmaydi***

**Olib boruvchi:** Biz bir-birimiz bilan yaxshiro` tanishishimiz uchun siz nimani yaxshi ko'rasizu nimani yomon ko'rishingiz haqida bilib olishimiz kerak. Bu haqda so'zlar bilan emas, balki rasmlar orqali gaplashib olamiz. Hozir har biringiz qog'ozga nimani yaxshi ko'rishingizni shunday chizingki guruhdagi qolgan bolalar nimaligini topa olishsin. Nimani chizayotganligingizni hech kimga aytmang. Bu topishmoq bo'ladi.

Qo'ng'iroqcha chalingandan so'ng bolalar chizishni to'xtatishadi. Olib boruvchi qo'ng'iroqcha ovozini eshitib unga qulqoq solganlarni «Diqqat» ordeni bilan taqdirlaydi.

### ***Javobsiz topishmoq yo'q***

**Olib boruvchi:** Guruxda oldingi vazifalarni bajargan holda har biringiz nimani chizganligingizni muhokama qiling. Kimdan boshlash uchun birinchi ishtirokchini tanlash kerak.

Qung'iroqcha chalingandan so'ng birinchi ishtirokchi qilgan ishini o'rtaga qo'yadi, qolgan gurux a'zolari u nimani yaxshi ko'rishini topishadi (u nima chizganligini). Muallif qo`shiladi yoki qo'shilmaydi («Roziman», «Rozi emasman» belgilari orqali). Birinchi ishtirokchi nimani yaxshi ko'rishini gurux a'zolari bilib olganidan so'ng ikkinchi ishtirokchi o'z ishini o'rtaga qo'yadi va x.k.

### ***Ismimizni yodga olamiz***

Bolalar partalardan chiqib, doira shaklida turishadi.

**Olib boruvchi:** Kelajakda Gullar shaxrida yashovchi bolalarning ismini yodga olamiz.

Agar bizning guruhimizda shunday ism bo'lsa chapak chalamiz; bo'lmasa oyoqlarimiz bilan polni taqillatamiz.

## ***Ikkinchi mashg'ulot***

### ***O'zini o'zi baholash, mezon, baho***



**Jixozlar:** Bolalar soniga qarab qartochkalar, qo'ng'iroqcha, qo'g'irchoq Bilag`onlar, belgilar.

**Maqsad:** Bolalarga olib boruvchi qo'ygan bahosiga nisbatan o'zini o'zi baholashni o'rgatish. Bolalarni sinfdoshlariga haqqoniy baho berishlarini o'rgatish.

### Mashg'ulotning borishi

#### *Tashqiliy qism*

Olib boruvchi bolalarga birinchi kun chizilgan bezakli varaq tarqatadi. Mashg'ulotni o'tkazish uchun kerak bo'ladigan barcha narsani tayyorlashni so`raydi (diqqatini «Oddiy qalam» belgisiga qaratadi).



#### *O'zaro baho*

**Olib boruvchi:** Kecha biz sizlar bilan chiziq yordamida Gullar shaxrida yashovchilar singari o'zini baholashni o'rgandik. Men o'zingizni qanday baholaganingizni ko'rdim. Agar men sizning baholaringizga qo'shilgan bo'lsam, sizning chizmangiz (krestik)ni qizil rang bilan belgilab qo`yanman. Hozir kimning chizmasini qizil rang bilan belgilab quygan bo'lsam o'rnidan tursin. Sizlar o'zingizni haqqoniy baholagansiz. Judayam past baholamagansiz va oshirib ham yubormagansiz. Bir bola o'ziga juda ham qattiq qo'l ekan (yuqoridagi rasmga qarang). Bu boladan o`ziga sal yumshoqroq bo'lishini iltimos qilardim. Agar bola o'zini mana bunday baholagan bulsachi (pastdagi rasmga qarang)?

Bolalar javob berishadi.

To'g'ri men ham bu odamga o'ziga sal talabchanroq bo'lishini maslahat berar edim...

### *Juftlik tanla*

**Olib boruvchi:** Biz guruhlarda ishlashni davom ettiramiz. Hozir sizlar qiziqarli mashg'ulotni bajarasiz va ularni baholaysiz. Ularni tug'rilingini baholashda nafaqat siz balki, do'stlaringiz ham ishtirok etishadi. Birga ishslash uchun tayyorligingizni ko'rsating.

Bolalar bir-birlarini ko'llarini ushlab yuqoriga ko'tarishlari kerak.

Bugungi mashg'ulotimizda juftlikda ishlashni o'rganamiz, mana bunday («Biz» belgisi taxtachaga yopishtiriladi).

Juftlikda ishslash nimani anglatadi? Juftlik ishslashga tayyorligini qanday ko'rsatish kerak? Ko'rsating!

Bolalar bir-birlarini qo'llaridan ushlab yuqoriga ko'tarishlari kerak. To'g'ri topganlarga orden topshiriladi.

Barakalla, endi guruxda juftingizni toping va bir-biringiz bilan hamkorlikda ishslashga tayyorligingizni ko'rsating!

Tashqilotchi juftlikni orden bilan taqdirlash.

Menga sizlarning aktivligingiz va birga ishslashga bo'lган xohishingiz yoddi.

Bilag'onlar gapga aralashadilar:

- Bolalar sizlarni birga ishlay oladigan do'stlaringiz borligi qanday yaxshi!
- Biz sizlarga ikkalangiz o'ynay oladigan ajoyib o'yinni tayyorlab qo'yganmiz. Xozir biz sizlarning diqqatingizni va uddaburonligingizni tekshirib ko'ramiz.
- Uynab ko'ramizmi?
- Unday bo'lsa diqqat qiling, uyinda asosiy qoidalar bor.

### *Mo'ljalga otshi*

Har bir bola ishslash uchun blank oladi. Blankaning orqasiga o'zining ismini yozadi (tashrifnomadan ko'chirib yozsa ham buladi).

O'yin qoidasini bilag'onlar taxtachada «Otishma» belgisini namoyish etib tushuntirishadi. Bilag'onlar kim birinchiligini kelishib olishadi.

Birinchi bilag'on – otuvchi, ikkinchisi - komandir buladi.



**Birinchi bilag'on.** Men qalam olib uni «To'pponcha» nuqtasiga tekkizaman.

**Ikkinci bilag'on.** Men buyruq berib turaman: «Tayyorlan! Nishonga ol! Ot!».

**Birinchi bilag'on.** Men «Ot» buyrug'idan so'ng chiziqni mo'ljalga olib boraman. Chiziqni to'g'ri bo'lishi uchun qalamda kog'ozdan qo'l uzmay turib chizish kerak va tug'ri mo'ljalning o'rtasiga tegishi kerak. o'q tug'ri uchishi kerak!

Sizlarda uchta o`rinish bor. Shundan so'ng sizlar rollaringizni almashtirasizlar.

Qaytaringlar, komandir qanday buyruqlar beradi.

Qung'iroqcha chalingandan so'ng otishni boshlaysiz. Kim birinchi bulishini o'zaro kelishib oling.

Ikkinci qo'ng'iroqdan so'ng otishni boshlaysizlar.

### *Sehrli chizg'ichlar*

**Olib boruvchi:** Bolalar, bilasizlarmi mакtabda har bir ish uchun baho qo'yishadi. Bizning shaharda baholar o'zgacha. Bizga ishlarni baholashda sehrli chizg'ichlar yordam beradi.

Nima deb o'ylaysizlar, merganni nima uchun baholash mumkin.

Bolalar o'z tahminlarini aytadilar.

Kelinglar bugun menganlarimizni mo'ljalga aniq otganligini, chiziqning to'g'riliğini va o'qlarining tezligi bo'yicha baholaymiz.

Qog'ozning orqasiga baholash uchun uchta chiziqcha chizing. Ularning har biriga «M» (manganligi), «T» (tekisligi), «T-2» (tezligi) harflarini quyib chiqamiz.

Ishlarimizni qanday baholashni eslaysizlarmi?

Olib boruvchi bolalarga baholash qoidalarini eslatadi.

O'z ishingizni baholang.

Qo'ng'iroqcha chalinadi.

Ishlaringiz bilan almashib, do'stingizni ishini baholang. Esingizda bo'lsin baholash haqqoniy bo'lishi lozim.

Bilag'onlar do'stlarning ishlarini yuqori yoki past baholash mumkin bo'lgan variantlarini namoyish etadilar.

Agarda siz do'stingiz o'ziga qo'ygan bahodan qoniqqan bo'lsangiz, uning atrofiga aylana chizing - bu do'stingiz o'z ishini to'g'ri baholaganligini bildiradi.

Kim o'zining qomandiriga minnatdorlik bildirmoqchi bo'lsa, uning qo'lini siqadi.

### *«Maktabda kim nimani o'rganmoqchi?» o'yini*

Bolalar aylana bo'lib turishadi va 3 harakatni o'rganishadi.

Qo'llar oldinga: «Men ham. Roziman».

Qo'llar orqaga: «Rozi emasman».

Qo'llar boshga, gardanini qashlab: «Men o'layapman. Men hali bilmayman».

O'yinni olib boruvchi boshlaydi: «Men - Kulrang bo'richaman. Men mактабга тishlashni о'рганиш учун кeldim. Sizlar-chi?»

Bolalar 3 harakatning birini bajarib javob beradilar. Uyinni Bilag'onlar davom ettiradilar.

## **Uchinchi mashg'ulot**

### **«Savol» belgisini kiritish**

**Jixozlar:** Bilag'onlar qo'g'irchog'i, belgilar, Matryoshka va Barbi qo'g'irchoqlari, qo'g'irchoqcha.

**Maqsad:** ilgari kiritilgan belgilarni eslash, «Savol» belgisini kiritish.

### **Mashg'ulotning borishi**

#### ***Mini test - mакtab qoidalarini eslatish***

Olib boruvchi bolalar bilan salomlashadi va so'raydi: «Kim ishlashga tayyor?» Qo'l ko'targanlarni Gullar shahridagi kichkintoylardek javob berishni o'rganib olganliklari bilan tabriklaydi.

**Olib boruvchi.** Ko'raylikchi, siz qanday bir-biringizning ismingizni eslab qoldingiz. Mening ismim...

Yana to'g'ri javob bergenlarni tabriklaydi.


Bizning shahrimizda qoidalar ko'p. Mashina haydovchilari yo`l harakati qoidalarini bilishlari va rioya qilishlari kerak bo'lsa, xuddi shunday Gullar shaxri aholisi ham bizning maktab qoidalarimizni bilishlari va rioya qilishlari kerak. Har bir qoidaning belgisi bor. Bu belgilar yodingizdam?

### ***Bilag'onlar uchun imtihon***

**Olib boruvchi.** Negadir bizning Bilag'onlarimiz jim bo'lib qolishdi! Qani ular? O'zingizni ko`rsatish vaqtি keldi. Sizdan esa bolalar, jiddiy yordam berish talab qilinadi. Barakalla, mana bizning mehmonlarimiz. Kelinglar, ular yana nimalar bilishlarini so'rab ko'ramiz?

Bilag'onlar hamma narsani bilishlarini, ularni Gullar shahriga albatta olib borish kerakligini baland ovozda aytishadi.

Unda sinab ko'ramiz! Hozir mehmonlarimizga savollar beraman, siz esa bolalar, ularning bilimlarini baholaysiz.



Bilag'onlar guruhlarda ishlashadi, bolalar ularning javoblarini «Roziman», «Rozi emasman» belgilari yordamida baholashadi. Agar guruhdan kelishmovchilik kelib chiqsa, olib boruvchi hamma bolalarning diqqatini shu savolga qaratadi.

Savollar quyidagicha bo'lishi mumkin:

Qanday mevalarni bilasiz?  
Qanday daraxtlarni bilasiz?  
Uy qushlarini aytib bering.

Imtihondan o'tolmagan Bilag'onlarni bolalar o'z ixtiyoriga qarab qaytarib yuborishadi yoki hamma narsani o'rganishlari uchun o'zlar bilan olib ketishadi.

### *«Savol» belgisini kiritish haqida*

**Olib boruvchi.** Bilasizlarmi, bolalar, kecha men ikki dugona - Matryoshka va Barbining gaplarini eshitib qoldim. Ular arazlashib qolganlar. Balki, sizlar qanday yarashib olish mumkinligini aytarsizlar?

**Barbi.** Salom, mening qadrli dugonam Matryoshka! Seni ko'rganimdan hursandman! Men fakat uik-endga keldim.

**Matryoshka.** Qanday yaxshi! Unda biz birga yangi yil kutishimiz, Qorbobo va Qorqizdan sovg'alar olishimiz mumkin!

**Barbi.** Afsus, Matryoshka! U vaqtida men uyimda -Amerikada bo'laman. Menikiga mehmonga taklif etaman. O'sha erda Santa-Klausdan sovg'alar olishimiz mumkin.

**Matryoshka.** Santa-Klausdan sovg'a olishni hohlamayman! Qorbobo yaxshiroq!

**Olib boruvchi.** Nima deb o'ylaysiz, bolalar, nega Matryoshka va Barbi birlarini tushunmadilar va arazlashib qoldilar?

Matryoshka bir xil so'zlarning ma'nosini tushunmadi va Barbidan ular nimani anglatishini so'ramadi.

Urushib qolmaslik uchun nima qilish kerak?

Bolalar o'zlarining fikrlarini aytadilar.

Albatta, urushib qolmaslik uchun, tushunmagan narsani so'rash kerak. Buning uchun bizning shaxrimizda «Savol» belgisi mavjud. Uni ko'tarasan va senga albatta yordam berishadi, javob topolmagan savolingga javob berishadi.

### **«Men ham» o'yini**

Olib boruvchi bolaga koptok otadi va o'zi haqida qandaydir ma'lumot aytadi. Bola koptokni kaytaradi va aytadi: «Men ham». Ammo olib boruvchi faqatgina «Men muzqaymoq, yaxshi ko'raman» debgina qolmay, balki «Men qirq yoshdaman» deyishi ham mumkin. Bolalarni olib boruvchi bilan har doim rozi bo'lavermaslikni oldindan ogohlantirish shart emas: «taqlid qilish tuzog'iga» tushgan bolaning o'ziga kulgili bo'lzin.


4-5 gapdan so'ng jo'rttaga bolalar tushunmaydigan gaplar ko'shiladi: xorijiy so'zlarni ko'shish yordamida, masalan: «Men hozir choy ichgan bo'lardim!» Agar bola «Men ham» deb javob bersa, olib boruvchi undan suraydi: «Sen hozir nima ichmoqchisan?» Shunday savol kiritadi: «Sizlar nima ichasizlar?» va x.k. va shundagina rozilik yoki norozilik qabul qilinadi.

## **To'rtinchchi dars.**

### **«Savol» belgisi bilan ishlash**

**Jixozlar:** bolalar soniga teng «Savol» qartochkalari; «Biz» belgisi; Qarlson qo'g'irchog'i, doskaga osiladigan uylar chizmasi; juftlikka bitta uylar chizmasi; rangli qalamlar rasmi bor belgi; qo'ng'iroqcha.

**Maqsad:** bolalarga juftlikda ishlashni o'rgatish; savollar yasashni o'rgatish; munozara olib borish va o'z fikrini bildirishni o'rgatish.



**«Рангли қаламлар» белгиси**

## **Mashg’ulotning borishi**

Doskaga belgilar ilib qo’yilgan («Biz», «Rangli qalamlar»)

**Olib boruvchi.** Hozir ishslash uchun o’zingizga juftlik toping.

### ***Kichkintoy va Karlson haqidagi hikoya***

Sinfda deraza taqillagani eshitiladi. Olib boruvchi pardalarni ochadi, derazada Karlson o’tiradi.

Salom, bolalar! Bu men, dunyodagi eng ajoyib Karlsonman! Men bugun sizning oldingizga Kichkintoy bilan yaqinda boshimizdan o’tkazgan bir nechta yangi hikoyalarni aytib bergani keldim.

Do’stim Kichkintoy yangi ko’chaga ko’chib o’tdi, u erdagи uylar shunday chiroyli, lekin bir muammo – hammasi har xil. Karlsonning mehmonga borishni yaxshi ko’rishi yodingizda bo’lsa kerak. Biz bilan mana bunday voqealar yuz berdi. Sizga tasavvur qilish oson bo’lishi uchun Kichkintoy yashayotgan yangi ko’chaning suratlarini olib keldim.

### ***Birinchi hikoya***

Men Kichkintoynikiga borgim keldi. Kichkintoy bergen manzil aniq, yodimda edi. Uni ikkinchi qavatning o’rta derazalaridan qidirish kerak. Kichkintoyni qaerdan qidirsam bo’ladi? Aytib yuboring!

Bolalar, Kichkintoy kutayotgan deraza oynasini toping. Juftlaringiz bilan maslahatlashing va sizning fikringizcha men qaysi derazaga uchishim kerak bo’lsa, o’sha derazaga qizil qalam qo’ying. Sizda har xil variantlar chiqdi, lekin Kichkintoy do’stini faqat bitta derazada kutyapti. Nima qilish kerak?

Olib boruvchi har xil fikrlarni yozib oladi va kim tug’ri javob bergenini hozircha aniqlamay turadi. Faqat bir narsa muhokama qilinadi: nega har xil chiqdi. Chunki taxminan ish tutilgan, anik ma’lumot bo’lmagan. Bolalar Kichkintoyna ko’shimcha savol berish kerak degan Hulosaga kelishlari kerak: «U qaysi - uch qavat yoki to’rt qavatlari uyni ikkinchi qavatining o’rta derazalarida yashaydi?»

**Olib boruvchi.** Kichkintoy yashaydigan uyning derazalariga qizil pardalar chizing.

Kelasi safar Karlson yana Kichkintoyni topolmay qolsa nima qilish kerak? «Savol» belgisi ko’tarilsin!

## *Ikkinchchi xikoya*

Yodingizdami, bizning Kichkintoy bilan teshikulchalarini olib qochib enagani aldaganimiz? O'shanda mazza qilgandik! Men o'z tajribamni takrorlamoqchi bo'ldim. Men teshkulchalarni oldim va Kichkintoyga shunday maktubcha qoldirdim: «Meni o'ng chetdagi derazadan qidir». Men teshkulchalarni judayam egim keldi, lekin Kichkintoyni kutdim. U esa menga teshkulchalarni bir o'zing eyish uchun jo'rttaga yashirinib olgansan dedi. Kichkintoyga noxaq ekanligini isbotlab bering.

*Olib boruvchi.* Kelinglar, bolalar, Karlson Kichkintoyni kutgan derazani topamiz. Karlsonga qanday javob bersa bo'ladi? Tushunarsiz joyini so'rang. Derazada tuvakdagi gul rasmini chizing.

## *Uchinchi xikoya*

Biz kichkintoy bilan oynani oldida o'tirib, o'zimizga yoqqan o'yinini o'inamoqchi bo'ldik. Biz uylar orasida uchib yurgan edik, birdan o'g'rilaraga duch kelib qoldik. Men ularni qo'riqlab qoldim, Kichkintoy esa telefon oldiga borib 02 raqamini terdi, bir qavatli kichkina uychaning chetki derazasidan o'g'rilar ko'ringanligini aytdi va go'shakni qo'ydi. Lekin milisiya bizni topa olmadi. Nega?

Nega bunday bo'ldi? Signal bering, shu derazaga lampochka rasmini chizing.

Bolalarning kattalar bilan qiladigan hulosasi shunday: agar sen nimanidir tushunmayotgan bo'lsang, agar ma'lumotlar kamlik qilsa, «Savol» belgisi yordamga keladi!

### *Ish uchun raxmat!*

*Olib boruvchi.* Mana birlgilikda ishlayotgan kunlarimizning yana biri tamom bo'ldi. Bugun, hayrlashishdan oldin, hovlimizda turgan bolalarning hammasiga qarashni taklif etaman. Eslab ko'ring, bugun kim bilan ishladingiz, kim bilan ishslash yoqqan bo'lsa, o'shani tanlang. Qo'ng'iroqcha chalinganda ularning oldiga boring va ish uchun minnatdorchilik bildiring. Qarang, bizning mehmonlarimiz buni qanday bajarishayapti.

Bilag'onlar bir-ikki bolaga birga bajarilgan ish uchun minnatdorchilik bildiradilar. «Rahmat, bugun menga sen bilan ishslash yoqdi, menga katta yordam berding», «Menga sen bilan ishslash juda yoqdi, menga juda e'tiborli bo'lding va o'z baholaring bilan qo'llab-quvvatlashni unutmading» va x.k.

## *Uy vazifasi*

Do'stlaring uchun ordenlar yasa va ularni nima uchun do'stlaringga topshirishni uylab top.

### *Kayfiyat gulini o'stiramiz*

Qo'ng'iroqcha chalinganda Kayfiyat gulini o'stirish uchun hamma bolalar o'z guruxlariga yig'ilishadi.

## UCHINCHI KUN

### Umumiy yig'ilish

**Jixozlar:** qo'g'irchoqlar, rangli qalamlar, uchta oq varag'.

**Maqsad:** bolalarga birga ishslashning har xil usullarini ko'rsatib berish; birga ishslashning taassurot qoldiradigan va qoldirmaydigan usullarini ajratish.

**Olib boruvchi.** Salom, bolalar! Bugun Bilmasvoy o'zining do'stlari haqida yangi videofilm yuboribdi. U bizdan videofilmni e'tibor bilan tomosha qilib javob yuborishimizni so'rayapti, uning do'stlari nimani notug'ri qilganlar, nimaga urishib qolganlar.

Kattalar o`yinchoqlar yordamida birga ishslashning har xil variantlarini tasvirlovchi sahna ko'rinishlarini qo'yib ko'rsatishadi.

Olib boruvchi o'rmon maktabdagi hayvonchalarga umumiy, juft bo'lib rasm chizishni topshirdi. Faqat bitta qalamlar to'plamidan foydalanish mumkin. Nimagadir bir xil juftliklarda hech narsa o'xshamadi.

Keling ularga buni hal qilishga yordam beramiz.

### Ayiqcha va filcha

**Ayiqcha.** Men rasm chizaman, sen esa qarab tur.

**Filcha.** Nega endi sen? Meni ham rasm chizgim kelyapti.

**Ayiqcha.** Men axir yaxshi rasm chizaman.

**Filcha.** Yuk, men ham bilaman! Qalamlarni menga ber. Bu mening qalamlarim. Sen hammasini noto'g'ri qilyapsan! (qalamlarni tortib oladi).

**Ayiqcha.** Shunaqami, unda qalamlarining bilan chizaver, qog'oz esa meniki, ber! (Kog'ozni tortib oladi, yirtib tashlaydi).

### Kuchukcha va mushukcha

**Kuchukcha.** Kel, kim nimani chizishini kelishib olamiz.

**Mushukcha.** Kel. Men irmoq rasmini chizaman. Senchi?

**Kuchukcha.** Men esa osmon va kuyosh rasmini chizaman.

(Mushukcha ko'k rangli qalamni oladi.)

**Kuchukcha.** Ko'k qalamni olma. U menga kerak. Men osmon rasmini chizaman.

**Mushukcha.** Irmoq rasmini men nimada chizaman?

**Kuchukcha.** Kel birga uylab ko'ramiz. Balki irmok zangori rangda bo'lar?

**Mushukcha.** Yaxshi.

**Kuchukcha.** Kel endi rasm chizamiz.

(Har biri o'zining qalamida rasm chizishadi.)

**Mushukcha.** Men chizib bo'ldim. Senchi? Yordam kerak emasmi?

**Kuchukcha.** Qara, chizgan quyoshimning nuri qiyshik chiqibdi. Sen menga uni chizishda yordam berolmaysanmi?

**Mushukcha.** Albatta, yordam beraman.

**Kuchukcha.** Mushukcha, raxmat senga. Sen bilan rasm chizish juda yaxshi.

**Mushukcha.** Qara, qanday chiroyli chiqdi. Sen ajoyib rassomsan!

## **Maymuncha va To'tiqush**

**Maymuncha.** Qani, kel rasm chizamiz! Men o'rmon rasmini chizaman.

**To'tiqush.** Men esa... Men nimani rasmini chizsam ekan... Ehtimol men o'rmondagi uycha rasmini chizarman.

(Hayvonlar rasm chizishadi).

**To'tiqush.** Nima qilyapsan? o'rmon rasmini chizaman degandingku. O'zing esa nima qilyapsan?

**Maymuncha.** Nima hohlasam, o'shani chizyapman. Men fikrimdan qaytdim. Men bananlar rasmini chizyapman. Ular shunday shirinki. Qara, qanday chiroyli chiqdi! Sen nima chizding o'zi?

**To'tiqush.** Bu mening uycham.

**Maymuncha.** Nimaga u bunaqa qiyshiq? Rosa boplab chizibsanku!

**To'tiqush.** Mening uycham chiroyli, sening bananlaring esa, sening bananlaring...

**Maymuncha.** Nima deyishni bilmayapsan, chunki mening bananlarim - eng yaxshi bananlar. Sen esa rasm chizishni bilmasang, chizmagin! Men bir o'zim ham chizaveraman!

**To'tiqush.** Mening ham rasm chizgim kelyapti! (Yig'laydi).

**Maymuncha.** Yig'lashning xojati yo`q. Avval rasm chizishni o'rganib ol, keyin esa chizaver!

**Olib boruvchi.** Mana shunaqa hikoyalar. Bolalar, qaysi hayvonchalarining ishlari sizlarga ko'proq yoqdi? Nima uchun?

Mushukcha va kuchukcha hamkorlikda ishslashdi va urushmadilar. Ular kelishib olishdi va ularda hammasi o'xshadi.

Kelishib olish nima degani?

Nima chizmoqchiligidimizni kelishib, qalamlarni ajratib olish kerak.

Ishni tugatgandan so'ng nima qilish kerak? Albatta, bir-biringizga «Raxmat» deyishingiz kerak.

Endi sizga birga ishslashga to'g'ri kelib qolsa, hech qachon tortishib qolmaysiz deb o`ylayman.

Endi esa bizning ketadigan vaktimiz bo'ldi. Biz sizga Gullar shaxridagi xayot xaqida ko'p narsalarni aytib berishga ulgurmadir.

Bilmasvoy esa bizni shoshyapti. Ketishga tayyorlaning! Ekipajlar tuzilsin! Bolalarni guruxlarga bo'lish.

## **Birinchi dars. Tanishuv.**

**Jixozlar:** belgilar, koptok, «Cho'pchak» turkumidan she'r, «Cho'pchak» xikoyasiga saxna ko'rinishi, qo'ng'iroqcha.

**Maqsad:** bolalarni bir-biri bilan tanishtirishni davom ettirish; oldin kiritilgan belgilar bilan ishslash, «Tuzoq» belgisini kiritish.



### Mashg'ulotning borishi

#### Davradagi tanishuv

**Olib boruvchi.** Bolalar, qaranglar, bizning Gullar shaxrimizda qancha bola yashaydi. Siz bir-biringiz bilan tanishib, ismingizni bilib oldingizmi? Bir-biringizning ismingizni yaxshiroq eslab qolish uchun, men shunday o'yin o'ynashingizni taklif etaman.

Keling, doira bo'lib turaylik. Biz musiqa oxangida doira bo'lib aylanamiz va koptokni bir-birimizga uzatamiz. Koptok ushlagan bola o'rtaga chiqib ismini aytishi va bizga biron bir harakat ko'rsatishi kerak.

Hamma ismni va harakatni kaytaradi.

Bolalar uynaydilar.

Keling, uyinni qiyinlashtiramiz. Kimga koptok otsam, o'sha o'ng va chap yonidagi bolaning ismini aytadi. Qolganlar javob to'g'ri yoki noto'g'rilibini harakat yordamida ko'rsatadilar. Men chapak chalganimda bolalar joylarini almashtiradilar va o'yin davom etadi.

#### Xayvonlar haqida suxbat

**Olib boruvchi.** Ko'pchililingiz xayvonlar bilan kizikishingizni bilaman. Xozir siz bilan uy xayvonlari to'g'risida gaplashamiz. Qani aytinglarchi, «Qanday xayvonlarni uy xayvonlari deyish mumkin? Men savollar beraman, siz esa e'tibor bilan eshititing.

Kimning uyida qanday xayvoni bor?

Olib boruvchi ayrim savollarni belgilar yordamida beradi.

Mushukning nechta panjasи bor («Men» belgisi)?

Birgalikda ayting: kuchukning nechta dumi bor?  
Xayvonlaringizning ismlari qanday («Men» belgisi)?  
Kim biladi, mushuklar tarvuz eydilarmi?  
Kuchuklar daraxtlarga chikishni biladilarmi («Men» belgisi)?  
Birgalikda ayting: kaysi xayvonning burni yapasqi?  
O'rmonda cho'chqaga o'xshagan bir xayvon bor. Uni shunday deb ham atashadi - yovvoyi chuchka.

Uning terisi yung bilan koplangan, tumshugi cho'zinchoq, yapaski burni va qoziq tishlari bor. Kim biladi, uning nomi nima?

Xozir esa men sizlarga she'r o'qib beraman. Bu she'rga xavaskor rassom Toxir rasm chizgan. Tinglang va qarang.

*Kuz urmonida kurdim boychechak,  
Tulkini o'rmonda quyon tortganda  
Va bo'ri ham ovchini poylaganida...  
Eshitdim men — tishlarin g'ichirlatganin ovchi  
Eshitdim men, uning «Yordam bering!» deganin  
Va qo'rquvdan qattiq kulganin!  
Kecha men o'tinga deb ketgandim  
Atrof esa qor tagidan o'tlar yam-yashil.  
O'rmondan men o'tin olmadim  
Va issiqda muzlagan burnimni artdim.*

Sizlar uchun bolalar shoirlaridan biri shunday she'r yozgan. Nimaga hammangiz kulyapsiz?

Nima deb uylaysiz, shoир rostdan ham shularni hammasini kurganmi yoki jurttaga bizga shunday Tuzoqlar kuyganmi: agar bolalar kulsalar, demak ular boychechakning faqat bahorda o'sishini, quyonning esa tulkidan qo'rqishini va uni ko'tarib keta olmasligini, agarda kulmasalar, demak o'rmon xayvonlarining hayoti haqida bilmaydilar va hamma yozgan narsalarini xaqiqat deb hisoblaydilar.

Bunday Tuzoqlarni shu ernaling tub axolisi Gullar shaxri axolisiga qo'yishni yaxshi ko'rishadi. Albatta, bunday Tuzoqlarga tushmagan ma'qul. Biz ularni maxsus belgi bilan beramiz.

Agar siz tuzoqni sezsangiz, «Tuzoq» belgisini ko'taring. Uni barmoklar yordamida ko'rsatish osonrok.

Keling «Tuzoq» belgisini quyishni mashq qilib ko'ramiz.

Cho'pchak takror o'qiladi. bolalar kerakli joylarda «Tuzoq» belgisini quyishadi.

Olib boruvchi eng e'tiborli bolalarni ordenlar bilan takdirlaydi.

## Ikkinchchi dars.

### Tuzoq

**Jixozlar:** gugurtlar (sanoq tayokchalar), rasmi qartochkalar to'plami («Kapalaklar», «Baliqlar», «Gullar»), belgilar, Tuzoq ordenlari, ikkita masqaraboz rasmi: raxmdil va yovuz, qo'ng'iroqcha.

**Maqsad:** chalg'itadigan savollarni sezishni o'rgatish; «Tuzoq» belgisini «ishlab chikish».



### Mashg'ulotning borishi

*«Men aytgan va ko'rsatayotgan ishni qil» o'yini*

**Olib boruvchi:** Iltimos, hozir e'tiborli bo'ling: «to'g'ri» topshiriqlarni bajaring; «Noto'g'ri» topshiriklarni ya'ni Tuzoqlarni sezsangiz, «Tuzoq» belgisini ko'rsating.

Olib boruvchi bir vaktning o'zida har xil harakatlar ko'rsatadi va nima qilish kerakligini aytadi (o'ng ko'lni mushtum qiladi, chapi bilan peshonasini silaydi, burni uchiga tegadi, deraza tarafga o'giriladi. boshini engashtiradi va x.k.). Ayrim harakatlari so'zlariga to'g'ri kelmay qoladi, bunday harakatlarni bolalar «Tuzok» belgisi bilan belgilaylilar.

### Fikr tezligini sinash

**Olib boruvchi:** Keyingi ishni biz guruxlarga bo'linib bajaramiz. Ishga tayyor ekanligingizni ko'rsating. Esingizda tuting, epchil bola Tuzoqqa tushmaydi!

Olib boruvchi besh shaharning nomini aytib o'tadi (kapalaklar, baliklar, gullar...). Bolalar bunda Tuzoqni topishlari kerak. Lekin olib boruvchining hamma gaplarida ham Tuzoq bo'lavermaydi.

Ishni boshlashdan oldin guruxlar quyidagi yuriqnomani olishadi.

Belgini ko'tarishdan avval, har bir sizga berilgan so'zga «rozman», «noroziman», «savol javobini bilmayman» kabi harakatlar bilan maslaxatlashing. «Tuzoq» belgisini ko'tarishga shoshilmang. Axir, bunday bo'lisi mumkin emasligiga to'lik ishonch hosil qilsangiz shu – Tuzoqdir.

Olib boruvchi belgini ko'targan uquvchidan bu erda Tuzoq nimada ekanligini tushuntirib berishini, «Tuzoq» bilan «Savol» belgilarini adashtirib yubormaganligini so'raydi. («Men bilmayman, sizdan so'ramokchiman»).

Uyin davomida kelib chiqqan savollarning hammasiga javob berish shart. Buni, iloji bo'lsa, bolalarning o'zлari qilishadi.

### ***Tayoqchalar bilan ishlash***

Ish aloxida bajariladi. Har bir bolaga 6 tadan tayokcha beriladi.

***Olib boruvchi.*** Tasavvur qiling, mexmonga ikkita masharaboz keldi: biri raxmdil (u hammaga «Tuzoq» ordenini olib keldi), ikkinchisi esa yovuz, u hammaning ordenlarini olib qo'y mokchi va bir o'zi ularga egalik qilmoqchi. U bizlarga yovuz, bajarib bo'lmaydigan topshiriklar tayyorlagan. Siz bajarib bo'lmaydigan topshiriqni sezsangiz, darxol «Tuzoq» belgisini ko'taring, shunda biz yovuz masharaboz ustidan g'olib chikamiz.

Hamma bittadan tayokcha olsin va undan biror nimani yasasin (bu qalam, 1 raqami, ustun bo'lisi mumkin). Shoshilmang: belgini ko'tarishdan avval, yaxshilab o'ylab ko'ring!

Ikkita tayokchani oling. Ularni biror harf shakliga keltiring.

Yana bitta tayokcha qo'shib uchburchak shaklini yasang.

Endi shu tayokchalarining o'zidan kvadrat shaklini yasab ko'ring.

Yana bitta tayoqcha qo'shib g'ildirak shaklini yasang va x.k.

Raxmdil masharaboz Tuzoqqa tushmagan o'quvchilarni Tuzoq ordenlari bilan takdirlaydi.

### ***Uchinchi dars. Juftlikda ishlash***

***Jixozlar:*** bo'y aladigan rasmlar (har bir juftlikka), rangli qalamlar (har juftlikka bitta to'plam), belgilar, qo'ng'iroqcha.

***Maqsad:*** juftlikda ishlashni davom ettirish; belgilardan foydalanishni murakkablashtirish, bolalarni maslaxatlashishga, gurux yordamidan foydalanishga o'rgatish.

### ***Mashg'ulotning borishi***

### ***Tohirning ustaxonasida***

**Olib boruvchi.** Aytinglarchi bolalar, do'stлaringiz ko'pmi? Bilmasvoyning ham do'stlari ko'p, Gullar shaxrining oldingi axolisi. Sizlar ham unga yaxshi do'st bo'lisingizga umid qilyapti. Bilmasvoyning do'staridan kimlarni bilasiz?

### **Bolalar sanab berishadi.**

Bugun men Bilmasvoyning do'sti xavaskor rassom Toxir bilan bo'lib o'tgan bir vokeani aytib bermokchiman. Toxir rasmlarini chizishda davom etish uchun bo'yok solingen katta qutini ochayotgan ekan, bexosdan barmog'ini qattiq qisib olibdi, endi umuman qo'lida mo'yqalam ushholmayapti. Buni baxtsizlik desa bo'ladi. Toxir 9 ta rasm chizishga buyurtma olgan, faqat bittasini chizib tugatgan edi. U buyurtmani vaktida bajarishi kerak. Shuning uchun ham Toxir bizdan yordam surayapti.

Biz unga qanday maslaxat berishimiz mumkin?

Bolalar o'zлari rasm chizib berishlarini aytishadi.

Buni eplay olamiz deb uylayapsizlarmi?

Yaqinda bizning Gullar shaxrimizda do'stlarini og'ir kunlarda tashlab qo'ymaydigan mittivoylar yashay boshlashi qanday yoqimli.

Faqat 9 ta rasm chizish kerak, sizlar esa 18 tasizlar. Nima qilish kerak? Keling, juft bo'lib ishlaymiz. («Biz» belgisi ko'rsatiladi).

O'z guruxingizdagи bolalarga qarang, kim bilan ishlashni xoxlasangiz o'shani tanlang. Kung'irokcha chalinganda shunday o'tiringki, birga ishlappingiz oson bo'lsin. Tayyor bo'lganingizni ko'rsating.

Yana bir muammo: Toxirning ustaxonasida faqat to'qqizta quticha qalamlari bor, shuning uchun har juftlikka fakat bitta quticha qalam berish mumkin.

Ishni boshlashdan avval, keling rasmling asliga e'tibor bilan qaraylik. Aytingchi, rasmda barglar yashil rangda buyalgan bo'lsa, ularni ko'k yoki qizil qalamda bo'yash mumkinmi? Albatta, mumkin emas! Rasmlarni Toxir bo'yaganidek qilib bo'yash kerak. Ishni boshlang!

Olib boruvchi bolalarni birgalikda ishlashini, murakkab xolatlarda bir-biriga yordamlashishini kuzatadi.

Qung'irokcha chalinganda bolalar ishni tugatadilar, E'tibor ordeni bilan taqdirlanadilar.

Barakalla! Hamma ish o'xshadi. Endi esa uychamizda yurib, bo'yagan rasmlaringizni qarab chiqing. O'zingizga eng ko'p yoqqan rasmni «+» belgisi bilan belgilang.

Endi hamkorlikda ishlagan bo'lsangiz, sheringizingizga minnatdorchilik bildiring.

Ishlarimizni rassom Toxirga yuborish vaqtি ham keldi.

Bolalarning qilgan ishlarini katta konvertga joylang.

### **Yakuniy umumiy yig'ilish**

Buni o'tkazish uchun bolalarni gilam ustiga o'tkazgan ma'qul. Yig'ilishda bolalarning Gullar shaxridagi sayoxatlarining birinchi kunlari xaqida yakuniy

xulosalar chiqariladi. Dars erkin so'zlashuv shaklida o'tadi. Bolalarga va kattalarga quyidagi savollarga javob berish taklif etiladi:

Shu kunlarda men nimalarni o'rgandim?

Menga nima yoqdi?

Men kimga «raxmat» aytmoqchiman?

Men... ni orden bilan taqdirlamoqman.

Birinchi kunlarning asosiy yakuni - bu har bir bolaga «Gullar shaxrining axolisi» ruxsatnomasi beriladi.

## ILOVA

Bolalarni guruhlarga ajratish usullari bolalarni bir-birlari bilan tanishtirishda, «biz oldindan tanishmiz» bahonasi bilan bitta guruxga birlashishlarining oldini olish Maqsadida, guruxlarni turli yo'llar bilan tashqil etish yomon usul emasdek tuyuladi. Shunday bo'linishlarning bir necha usullarini taqdim etamiz:

- Ismlari bilan.

Masalan, Mavlon va Madina, Davron va Diyora – bitta gurux, Jamila, Jamshid, Jasur – ikkinchi gurux va x.k. Bu bo'linish usuli olib boruvchidan bolalarning ismlarini oldindan qarab chiqishni talab etadi.

- Ko'z rangiga qarab.

Ko'zi ko'k rangda bo'lganlar - bitta gurux, qora rangdagilar esa - ikkinchi gurux va x.k.

- Shakllarga qarab.

Bunday bo'linish uchun bolalarga bo'linish asosi bo'ladigan har xil geometrik shakllar beriladi.

- Shakllar rangiga qarab.

Bolalarga bir xil rangli figurasi bor bolani topish kerakligi aytiladi.

- Rasmi qartochka bo'lakchalari orqali.

Rasmi qartochkani guruxda nechta bola bo'lishiga qarab o'shancha bo'lakchaga bo'linadi. Bolalar shu rasmi qartochkani yig'ishlari kerak.

- «Darvoza» o'yini yordamida.

Bolalarni ikki guruxga bo'lish kerak bo'lganda ishlatiladi. Agar guruxlar ko'proq bo'lishi kerak bo'lsa, darvozalar soni oshiriladi.

- Qur'a tashlash orqali.

Bir xil uzunlikdagi yoki rangdagi tayoqchalarni tortib olish kerak.

- Yoqtirishiga qarab.

Quyidagi bo'linishni bolalar bir-birlarini yaxshiroq tanib olganlaridan so'ng bajargan ma'qul. Usullar bu erda ham har xil bo'lishi mumkin. Masalan: «Eng dovyurak bolalardan to'rttasi (nechta gurux bulish kerak bo'lsa) chiqsin. Siz

kemalarimizning kapitanlarisiz va sayohatga otlanayapsiz. Lekin komandasiz kapitan bo'lmaydi! Kapitanning asosiy yordamchisi - shturman. Kapitanlar, o'zingizga shturman tanlang (qiz bolalar ug'il bolalarni tanlashi va aksi kabi cheklashlar qo'yish mumkin). Shturmanlar, siz esa o'zingizga bosman toping» va x.k. Asosiy e'tiborni oxirida qolgan bolalarga qaratish lozim. Bunday bolalar komandani o'zлari tanlashlariga ijozat berish kerak.

### ***«Boshqaga uzat» o'yini***

O'yin guruxlarda o'tkaziladi. Bolalar guruxlarda aylana yoki zanjir hosil qilib o'tirishadi. Har bir guruxga olib boruvchi u yoki bu predmet nomini aytadi (masalan: issiq qartoshka, suv, hamir, quymok va boshqalar). Guruxning vazifasi o'z ma'lumotini boshqa guruxlarga pantomima yordamida tushuntirib berish. Boshqa guruxlarning vazifasi - bu nima ekanligini topish.

### ***«Piramida quruvchilar» o'yini***

Juft bo'lib o'ynaladi. Juftlik qo'llaridan ushlab o'yin oxirigacha qo'yib yuborishmaydi. Signal chalinganda juftliklar har xil kattalikdagi predmetlardan piramida qurishlari kerak. Qurilish komplektlarini olib boruvchilar oldindan tayyorlab qo'yishadi. Bir juftlikka bir xil kattalikdagi ikkita quticha quyish mumkin, boshqa kattalikdagi qutichasi bor juftlikka murojaat qilishlari uchun.

### ***«Takrorlama» o'yini***

Ikkitadan yoki uchtadan bo'lib o'ynaladi. Har bir guruxga bir gap aytildi. Vazifa: uni boshqa so'zlar bilan aytib berish kerak (masalan: ko'chada havo ochik - kuyosh charaqlab chiqib turibdi).

## **Maktabga qabul qilingan olti yoshli bolalar uchun korreksion rivojlantiruvchi mashg'ulotlarni o'tkazish bo'yicha tavsiyalar**

- 1. Quyida keltirilgan mashg'ulotlar bolalarning fikrlashi, diqqat, xotira, nutq, mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.**

### **«Buni qanday qo'llash mumkin»**

Bolalarga imkon qadar ko'p hollarda ishlatilishi mumkin bo'lgan predmet nomini ayting. Har bir bola o'z uslubini taklif qilishiga erishing. Masalan: Siz qalam so'zini aytishingiz mumkin. Uni ishlatish yo'llari turlicha bo'lishi mumkin: rasm chizish, yozish, ko'rsatkich sifatida va hokazo.

### **«Tovushlarni aniqla»**

Bolalar aylana bo'lib o'tiradilar, Bolalardan biri etaklovchi bo'ladi. U boshqa o'yinchilarga nisbatan tesqari turadi. Shu vaqtida bolalardan biri qisqacha (2-3 so'zdan iborat) gap aytadi, masalan, Oltin kuz keldi. Etaklovchi bu gapni kim aytganligini tovushidan aniqlashi kerak. Har bir bola etaklovchi bo'lib chiqishi kerak.

### **«Xatolarni to'g'rيلaymиз»**

Bolalar aylanaga turadilar. Olib boruvchi turli xatolari bo'lgan gapni aytadi. Sunday gaplar har bir bolaga taqdim etiladi. Qaysi bola gapda xato topolmasa o'yindan chiqadi. Oxirida qolgan bola g'olib hisoblanadi. Masalan, Archa daraxtida olmalar pishdi. Csmonda uchta zog'ora baliq uchyapti.

### **«Umumiylilikni izlash»**

Bolalar aylana qurib o'tiradilar. Olib boruvchi bolalardan biriga to'pni otayotib, bir-biri bilan bog'lanmagan 2 ta so'zni aytadi. Masalan: maktab va o'qituvchi, kitob va javon, quyosh va gul va hokazo. To'pni tutib olgan bola so'z juftligi orasidagi umumiylilikni aytib to'pni qaytaradi.

## **2. Bolalarning xotirasi, diqqati, idrokini rivojlantirish bo'yicha mashg'ulotlar**

### **«Kim sinchkovroq»**

O'yin ishtirokchilari yarim doira bo'lib o'tiradilar va etaklovchi tanlaydilar. Etaklovchi 1-2 daqiqa ichida o'yin ishtirokchilarining joylashish tartibini eslab qolishi kerak. So'ng tesqarisiga qarab ularni nomma-nom eslaydi. Har bir bola etaklovchi bo'lib chiqishi shart.

### **«To'rtinchisi ortiqcha»**

Bolalar aylana bo'lib o'tiradilar. Olib boruvchi biron bir bolaga to'pni otib, uchtasi bitta umumiyl tushunchaga ega bo'lgan 4 ta predmet nomini aytadi. Bola shulardan bitta ortiqchasini aytib, to'pni qaytarishi kerak (masalan, kitob, daftар, qalam, deraza).

### **«Ayg'oqchi»**

Biron bir bolani bir necha daqiqaga xonadan chiqib turishini taklif eting. Shu vaqtida xonada qolgan bolalar oralaridan bir bolani tanlab qo'yadilar. Shundan so'ng tashqaridagi bola kirib, o'yinchilarga tesqari turadi va tanlangan bolani tashqi qiyofasi bo'yicha savollar beradi. Savollar

soni 1-3 tagacha bo'lishi mumkin. Savollarga javob olgandan so'ng «ayg'oqchi» bolalar kimni tanlashganini aytib berishi kerak. Har bir bola «ayg'oqchi» bo'lib chiqishi kerak.

### **«Kim ko'p»**

Bolalarga 1 daqiqa davomida xonani aylanib, atrofni kuzatish taklif etiladi. Asosiy vazifa doira shaklidagi predmetlarni topib, eslab qolishdan iborat. So'ng barcha bolalar aylana shaklida o'tiradilar va navbatma-navbat eslab qolgan predmetlarning nomlarini aytishadi. Bironta so'z aytolmagan bola o'yindan chiqadi. Oxirida doira shaklidagi predmet nomini aytgan bola g'olib deb topiladi.

## **3. Bolalarning og'zaki nutqini, predmetlarni guruhlashtirishni, umumlashtirishni rivojlantirish bo'yicha mashg'ulotlar**

## **«Jumlanı tugat»**

Bolalar aylana bo'lib o'tiradilar. Boshlovchi ularning biriga koptokni otadi va jumlaning boshlanishini aytadi. Koptokni olgan bola gapni tugatishi va koptokni boshlovchiga qaytarishi kerak.

O'yin shu tariqa davom etadi. Ikki marta gapni tugallay olmagan bola o'yindan chiqadi va boshqalarni diqqat bilan kuzatib turadi.

Kechasi qorong'i, kunduzi esa...

Qishda sovuq, yozda esa...

Qush uchadi, ilon esa...

Ertalab nonushta qilamiz, kunduzi esa...

Xo'roz qichqiradi, mushuk....

## **Qo'shimcha o'yin va mashqlar «Xuddi shunday rangdan top»**

**Maqsad:** O'quvchilarning idrok va diqqatini rivojlantirish.

**Ishning borishi:** Stol ustiga shakli, rangi bir xil bo'lgan lekin o'n ikki bo'lakka bo'lingan to'rt burchak shakli yoyib qo'yiladi. O'quvchilar ana shu 12 ta shaklni bir-birining yoniga qo'yib bir minut vaqt ichida 4 burchak shaklini yasashlari lozim.

## **«Hammaga etadimi?»**

**Maqsad:** O'quvchilar tafakkurini o'stirish

**Ishning borishi:** O'quvchilarga hayvonlar rasmi va ozuqalari tasvirlangan rasmlar ko'rsatiladi. O'quvchilar qaysi hayvonga ozuqa etmasligini topib ko'rsatishlari kerak.

## **«Sen ayiqning o'rnini qanday joylashtirgan bo'lar eding?»**

**Maqsad:** O'quvchilarning diqqatini va tafakkurini o'stirish

**Ishning borishi:** Stol ustiga tartibsiz ravishda, ayiqchaning uqlashi, badan tarbiya mashqlarini bajarishi, yuvinishi, o'qishi, o'ynashi va nonushta qilishi tasvirlangan rasmlar aralashtirib qo'yiladi. O'quvchilar tartib bilan rasmlarni o'z o'rniga qo'yib joylashtirishlari kerak.

### «O'xshashini olib kel»

**Maqsad:** O'quvchilarning esda saqlash xotirasini o'stirish.

**Ishning borishi:** Turli o'yinchoq va buyumlarning tasvirlangan rasmlari o'quvchilarga tarqatiladi. O'qituvchi yoki psixolog tomonidan o'yinchoq yoki biror buyum tasvirlangan rasm bir-ikki sekund ichida ko'rsatilib olib qo'yiladi. O'quvchi ko'rsatilgan rasmni xotirasida saqlab, stol ustida qo'yilgan rasmlar orasidan topib ko'rsatishi kerak.

### «Bu qanday hayvon?»

**Maqsad:** O'quvchilar xotirasini rivojlantirish.

**Ishning borishi:** O'qituvchi o'quvchilarga echki, buzoq, qo'y, bo'taloq, ot, ho'kiz rasmlarini tarqatib chiqadi. O'qituvchi hayvonlarning ovoziga taqlid qilib, ovoz chiqaradi, O'quvchilar esa, eshitilgan ovozni tanib, shu hayvon tasvirlangan rasmni ko'taradi.

### «Ajoyib xaltacha»

**Maqsad:** O'quvchilarning sezgi, idrokini o'stirish.

**Ishning borishi:** Psixolog xaltachaga turli sabzavotlarni soladi: sabzi, piyoz, qartoshka, sholg'om, turp, qaram. O'quvchilarning ko'zlari bog'lanadi<sup>^</sup> barmoqlari, kaftlari va qo'llari yordamida paypaslab sabzavotlarni topib, nomi nima ekanligini aytganlaridan so'ng, sabzavot xaltachadan olinadi. Sabzavot nomini to'g'ri topgan o'quvchi rag'batlantiriladi.

### «Nima etishmaydi?»

**Maqsad:** O'quvchilar idrokini o'stirish.

**Ishning borishi:** Turli xil buyumlar va ularning bo'lagi tasvirlangan rasmlar, masalan, choynakning qopqog'i yo'q, stolning biroyog'i yo'q. Stolning ustiga rasmlarning tesqari tomoni o'girib qo'yiladi, detallarning esa o'ng tomoni qo'yiladi. O'qituvchi o'quvchini chiqarib, rasmlarning birini olishni taklif etadi. O'quvchi olgan rasmdagi narsaning nomini aytadi va rasmda etishmaydigan detail qismini olib ko'rsatadi.

### «Buzilgan telefon»

**Maqsad:** O'quvchilarning eshitish sezgisini rivojlantirish.

**Ishning borishi:** O'quvchilar aylana shaklida o'tiradilar. Birinchi partadagi o'quvchining qulog'iga sekin bir so'z aytildi. Oxirgi partada o'tirgan o'quvchi shu so'zni baland ovoz bilan aytishi kerak. Agar so'z to'g'ri aytilgan bo'lsa, telefon yaxshi ishlaydi. So'z xato aytilda, telefon buzilgan, uni tuzatish kerak ya'ni telefon qaerda buzilganligi aniqlanadi.

### «Kim chaqirdi?»

**Maqsad:** O'quvchilarning sezgi, idrokini rivojlantirish.

**Ishning borishi:** O'quvchilar doira shaklida o'tiradilar. Bolalarning biri ko'zini yumib yoki orqasini o'girib turadi. O'quvchilarning biri uning ismini aytib chaqiradi. Ko'zini yumib turgan bola qaysi o'quvchi uning nomini chaqirganini topishi kerak.

### «Ta'midan top»

**Maqsad:** O'quvchilarning sezgi, idroklarini o'stirish.

**Ishning borishi:** Stol ustiga to'g'rالgan meva va sabzavotlar likopchada qo'yiladi. O'quvchilar diqqat bilan o'tirishadi. O'qituvchi bolalarga likopchalarda meva yoki to'g'rab qo'yilgan sabzavotlardan totib ko'rib, ta'mini aytib berishini taklif etadi. Shundan so'ng o'quvchilardan biri ko'zlarini yumib turadi, ikkinchi o'quvchi uni

mehmon qiladi. Bola mevaning ta'mini totib ko'rib, uning nomini aytib beradi. Bu o'yin orqali bolalarning sezish, idrok qilish jarayoni rivojlanadi.

### «Bu qachon bo'ladi?»

**Maqsad:** Yil fasllarining o'ziga xos belgilari to'g'risidagi tasavvurlarini mustahkamlash. Jihoz: Qog'oz shakli to'rtga bo'linadi. Har bir qismida yilning 4 ta fasli tasvirlangan bo'ladi. Ishning borishi: Bola psixologning iltimosiga ko'ra, har bir faslning o'ziga xos xususiyatlarini, ta'rifini aytadi.

### «Kerakli rasmni top»

**Maqsad:** Narsalarning nomini, va nima uchun ishlatalishini, joyini aniqlashga o'rgatish. Bolalarning tafakkurini o'stirish.

**Jihoz:** Ish mazmuni aks ettirilgan rasm. Ertalabki yuvinish, kiyinish, ovqatlanish kabi faoliyatlar aks ettirilgan mazmunli rasm bo'lishi mumkin.

**O'yinni o'tkazish:** mazmunli rasmlarning birortasi bolalarga ko'rsatiladi. Rasmlarda nimalar aks ettirilganligini bolalar yaxshilab ko'rib olganlaridan so'ng, biror bolaga rasmlarni stol ustiga qo'yib chiqish so'raladi. Rasmlarni qo'yib chiqqandan keyin, bolalarning birortasi chaqirilib, rasmda aks ettirilgan faoliyat haqida so'zlab berishni va stol ustiga qo'yilgan har bir buyumning nomini aytishni taklif etadi.

### «Uchadi, uchmaydi»

**Maqsad:** Eshitish sezgisini, mantiqiy tafakkur va idrokni rivojlantirish.

Masalan: chumchuq - uchadi

ilon- uchmaydi

sigir- uchmaydi

bedana - uchadi

**O'yinning borishi:** bolalarga biror hayvon nomi aytildi, bolalar aytilgan hayvon harakatini bajarib ko'rsatadilar, uchmaydigan hayvon nomi aytilsa, jimgina o'tiradilar.

### «Kim chaqqon»

**Maqsad:** Ko'rish, harakat sezgilar, rangni va fazoviy munosabatlarni idrok qilish tushunchalarini rivojlantirish.

**Ishning borishi:** Stol ustiga 12 ta shakl tartibsiz holda yoyib qo'yiladi. Shakllar har xil rangda va kattalikda bo'lishi kerak. O'qituvchi bolalarning birini chaqirib shaklni tez topib berishni taklif etadi, shaklni tez topgan bola uni baland ko'tarib, uning nomini va nima uchun to'rt burchakligini, rangini, katta-kichikligini aytadi. O'yin oxirida g'oliblar aniqlanadi.

### «Kim chaqirdi»

**Maqsad:** Bu o'yin orqali bolalarning eshitish sezgisini va idrokini rivojlantirish.

**Ishning borishi:** Bolalar doira shaklida o'tiradilar, bolalardan birortasi ko'zini yumib yoki orqasini o'girib turadi, o'quvchilardan birortasi shu o'quvchining nomini aytib chaqiradi. Ko'zini yumib turgan bola qaysi bola uni chaqirganini topa olishi kerak.

### «Kimning qo'lida nima bor?»

**Maqsad:** O'quvchilarning sezgi, idrokini rivojlantirish.

**Ishning borishi:** Psixolog bolalarning doira bo'lib, qo'llarini orqalariga qilib turishlarini taklif etadi va qo'llariga olma, behi, sabzi, nok qo'yadi. Kimda olma bo'lsa, meni oldimga yugurib kelsin deydi.

Shu tariqa biror bir mevaning nomi aytulganda, bolalar birin - ketin psixolog yoniga keladilar, o'yin shu tarzda davom etadi.

### «Tez javob ber»

**Maqsad:** Tafakkur turlarini rivojlantirish

**Ishning borishi:** ( Bu o'yinni o'n yoshgacha bo'lgan bolalar bilan o'tkazish mumkin.) Psixolog bilan bolalar davra bo'lib o'tiradi. Qo'lidagi koptokni bolalarning biriga tashlab predmetning rangi yoki formasi, xususiyatlaridan birining nomini aytadi. Bola esa bunga mos biror so'zni tanlab koptokni qaytarib beradi.

Masalan: yashil - barg, o't, aylana - oy, quyosh. Bolalar o'yinni o'zlashtirgach qo'shimchalar kiritish mumkin.

### **«Uchta predmetning nomi»**

**Maqsad:** Tafakkurning umumlashtirish jarayonini rivojlantirish.

**Ishning borishi:** Psixolog va bolalar davra bo'lib o'tiradilar. O'yinni olib boruvchi o'yin qoidasini tushuntiradi.

Men hozir bir so'z aytaman, sizlar shu so'zga mos keladigan 3 ta so'z to'plashingiz kerak.

Masalan: mebel - stol, stal, divan. Gul - atirgul, chinnigul, lola

O'quvchilar o'yinni o'zlashtirgandan keyin unga o'zgartirish kiritish mumkin yoki awal tarkibiy so'zlarni aytishi, undan keyin umumiyl so'zlarni topishi kerak. Cho'mich, qoshiq, qozon - oshxona buyumlari.

### **«Men ham»**

**Maqsad:** Mantiqiy tafakkur va idrokni rivojlantirish.

**Ishning borishi:** O'qituvchi biror ertakni yoki hikoyani tanlaydi va bolalarga tushuntiradi. Hozir men sizlarga ertak aytib beraman. Sizlar ham ertakni qahramonlari bilan qo'shila olsangiz «Men ham» deb aytasiz. Bo'lmasa jimgina o'tirasiz. Pedagog men daladan gul terayapman..., tovuq 5 ta jo'jasib bilan men tomonga kelayapti... Shu payt kalxat keldi...

Tovuq jo'jalari bir tomonga, men esa boshqa tomonga qochdim... Har bir gapdan keyin pedagog pauza qiladi, ya'ni bolalarning fikrashi uchun sharoit yaratishi kerak.

## **«Sharning ipini top»**

**Maqsad:** Bolalarni ranglarni ajratishga o'rgatish.

**Mashg'ulot jihoz:** Qog'ozdan qirqilgan harxil rangdagi shakllarva shu ranglarga mos qog'oz «ip»lar.

**Ishning borishi:** Stol ustiga sharlar va iplar alohida qo'yiladi. Bolalarga sharlarni o'z ipi bilan bog'lash lozimligini tushuntiriladi va sharlarning ipini topish aytiladi.

## **«Kim birinchi bajaradi»**

**Mashg'ulot jihoz:** Ikki shishachada rangi bir xil bo'lgan 48 dona toshcha yoki tugmacha solib qo'yiladi.

**Maqsad:** O'quvchilarning irodasini tarbiyalash.

**Ishning borishi:** Ikki bola yuzma - yuz qilib stolga o'tqaziladi. Har biriga shishacha va 24 dona toshcha beriladi. Toshchalarни shishachaga bir donadan solishlari kerak. Sinfdagи boshqa bolalarular ishini kuzatib turadi. Ishni kim birinchi tugatsa, g'olib hisoblanadi. O'yin shu tariqa davom ettiriladi.

## **«Kim aqlli»**

**Maqsad:** Qo'l motorikasini rivojlantirish

**Ishning borishi:** Ikki quti gugurt stol ustiga qo'yiladi. Ikki bola qaramaqarshi tarzda stolga o'tiradi. Gugurt donalari tartibsiz ravishda yoyib qo'yiladi. Gugurt donalarini tartib bilan qutiga solish vazifasi topshiriladi. Qaysi bola gugurt donalarini tartib bilan joylashtirsa, tafakkur jarayonining yaxshi rivojlanganlik darajasini bildiradi. Bu o'yin orqali bolalarning ishchanlik qobiliyatlari rivojlantiriladi.

## **«Bu nimaning rasmi edi»**

**Maqsad:** Idrokni rivojlantirish

**Jihoz:** **Mushuk** va itning to'rt bo'lak qilib qirqilgan rasmlari.

**Ishning borishi:** Ikki bola stolda qarama - qarshi tarzda o'tiradi, stolda qirqilgan rasm bo'laklari aralashtirib qo'yiladi. Bolalarning har biriga mushuk va itning rasmini bo'laklardan tiklash so'raladi. Kim rasmni birinchi bo'lib tiklasa, o'sha bola g'olib hisoblanadi. Bu o'yin orqali bolalarning sezgi, idrok, diqqati rivojlanadi.

### «Nima o'zgardi»

**Maqsad:** Xotira, diqqat, sezgini rivojlantirish.

**Ishning borishi:** Stol ustiga yoki doskaga bir necha rasm qo'yiladi. Bolalarga rasmlarni yaxshilab ko'rishlari va eslab qolishlari aytildi. Keyin bolalar ko'zini yumib turadi, shu vaqtda rasmning bir yoki ikkitasining o'rni o'zgartirib qo'yiladi.

Savol: Nimaning o'rni o'zgardi? Bola shuni topib, eslab qaysi rasmning o'rni o'zgarganini aytishi lozim.

### «Yanglishma»

**Maqsad:** Bolalarning diqqati, esda saqlab qolishi va qayta esga tushirish jarayonlarini rivojlantirishga o'rgatish.

**Ishning borishi:** Psixolog va bolalar davra bo'lib o'tirishadi. Doskaga ikki o'quvchi chiqariladi. Bir o'quvchi ikkinchi o'quvchini boshdan oyoq kuzatib, uning kiyimlari qanaqa ekanligini va nomini ovoz chiqarib aytadi. O'rtog'inining kiyimlarini kuzatgan bolaning ko'zi bog'lanadi u orqa o'girib turadi. Esda saqlab qolgan narsalarning nomini aytishi lozim. O'quvchilar uni kuzatib, tekshirib turadi va «to'g'ri», «noto'g'ri» deb tasdiqlab turadi. O'quvchi uch marta yanglishsa, o'rniga boshqa o'quvchi chiqariladi va o'yin davom ettiriladi.

### «Bu kim»

**Maqsad:** Sezgi, diqqatni rivojlantirish.

**Ishning borishi:** Psixolog va bolalar davra bo'lib o'tiradi. O'rtaga bir bola chiqariladi, o'rtoqlarini yaxshilab kuzatgandan so'ng orqa o'girib turadi.

Psixolog bolaga, men hozir o'rtoqlaringdan birini kiyimining belgilarini aytaman, sen mening aytganlarimni yaxshilab eshitib, men kim haqida gapi rayotganligimni topishing kerak, deydi. Masalan, sochi sariq, shapkasi oq, ko'ylagi qizil.

Agar bola uning kim ekanligini topa olmasa, o'rni almashtiriladi. Uch marta topgan o'quvchi g'olib hisoblanadi.

### **“So'zlarni yodla”**

Bu metodika asosida xotiraning bilish jarayonidagi rolini aniqlash mumkin. Bolaga 12 ta so'z (daraxt, qo'g'irchoq, qoshiq, gul, telefon, stakan, piyola, qush palto, lampochka, rasm, odam) aytildi. Bola eslaganini aytib beradi. Bu o'yin olti marta takrorlanadi va yodlab aytib berilgan sonlar sanaladi.

Natijani baholash

10 ball – 6 va undan kam urinishda 12 so'zni yodlab aytса  
8-9 ball – 6 va undan kam urinishda 11-10 so'zni yodlab aytса  
6-7 ball – 6 va undan kam urinishda 8-9 so'zni yodlab aytса  
4-5 ball – 6 va undan kam urinishda 6-7 so'zni yodlab aytса  
2-3 ball – 6 va undan kam urinishda 4-5 so'zni yodlab aytса  
0-1 ball – 6 va undan kam urinishda 3 so'zni yodlab aytса

Rivojlanish darajasi

10 ball – juda yuqori  
8-9 ball – yuqori  
4-7 ball – o'rta  
2-3 ball – past  
0-1 ball – juda past

### **“Belgilarni qo'yib chiq”**

Bunda rasm tepasidagi shakllarga belgilar qo'yib ko'rsatilgan. “Sen shundan foydalanim qaysi shaklga qaysi belgi qo'yilgan bo`lsa sen ham shu belgini qo'yib chiq” deyilib ikki daqiqa vaqt ajratiladi va natija formula orqali aniqlanadi.

$$S = \frac{0,5 \cdot N - 2,8n}{120} \text{ bunda } S \text{ diqqatning ko`chishi, } N \text{ belgilangan vaqt}$$

davomida bajarilgan ish (belgi to`g`ri qo`yilgan shakllar soni) n – xato.

10 ball – S=1,00 dan ko`p

8-9-ball – S=0,75 balldan 1,00 gacha

6-7-ball – S=0,50 dan 0,75 gacha

4-5-ball – S=0,25dan 0,50 gacha

0-3-ball – S=0,00 dan 0,25 gacha

Rivojlanish darajasi:


10 ball – juda yuqori

8-9- ball yuqori

6-7- ball o`rta

4-5- ball past

0-3- ball juda past



Ko`p yillik kuzatishlar va pedagogik tajribalar, ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko`rsatadiki, o`quvchining aqliy rivojlanish darajasini pastligi yoki ularda ma'lum o`quv malakalarining rivojlanmaganligi, past o`zlashtirishga, uning kasbga, ilmga qiziqishining pasayishiga olib keladi. SHuning uchun o`quvchining intellektual rivojlanish darajasini, ularda mavjud o`quv malakalarini o`rganish, kamchiliklarni tuzatish, maxsus o`quv va mehnat malakalarni rivojlantrishga yo`naltirilgan ishlar o`quv-tarbiya jarayonining samaradorligini oshiradi. Hozirgi vaqtida pedagoglar va pedagogik psixologiya mutaxassislar oldida ikkita o`zaro uzviy bog`liq muammo-o`quvchining ta'lim olishga bo`lgan qobiliyatini va o`zlashtirishning pastligi sabablarini, ular orasidagi bog`liqlik o`rganish dolzarb bo`lib turibdi.

Diagnostikaning asosiy vazifasi faqatgina bir fandan emas, balki bir qancha fanlardan o`zlashtirishni, yomon o`zlashtirish sabablarini (agar shunday hol ro`y bergen bo`lsa) topishdangina iborat emas. Pedagog uchun o`quvchining haqqoniylarini imkoniyatlarining barcha qirralarini iloji boricha ochib berishga xizmat qiluvchi, har qanday sharoitda, qaysi predmetdan qanday mavzu o`tilganidan qa'ti nazar qo'llash mumkin bo`lgan metodikalar zarur.

Avvalambor shuni ta'kidlab o`tish kerakki, o`quvchilarning aqliy rivojlanish darjasini ulardagi nazariy yoki amaliy bilmi olishga qobiliyat yoki bilimning mavjudligi bilangina aniqlanmaydi. O`quvchining aqliy rivojlanish darajsi tafakkur jarayonlarining rivojlanganligi, o`quv materialining muhim va asosiyalarini ajrata olishi, olgan bilim yoki hosil qilingan, o`zlashtirilgan ko`nikmani boshqa faoliyatga ko`chira olishi, turli nazariy bilimlarni amalda qo'llay olishi, mustaqil fikrashi, xulosa chiqara olishi, texnik vazifalarni echa olishi (texnik tafakkur) kabi bir qancha belgilar bilan aniqlanadi. SHu sababli pedagoglar o`quvchining o`rganayotgan kasbi, qaysi o`quv predmetining muhimligidan kelib chiqqan holda uni baholashlari osonroq bo`ladi.

## **O`QUVCHINING O`QUV VA MEHNAT KO`NIKMALARINI O`RGANISH**

O`quvchining o`quv va mehnat ko`nikmalari o`z ichiga uning o`z ishini rejelashtira olishi, o`z faoliyatini o`zi nazorat qila olishi, faoliyat sur`atini boshqara olishini oladi.

O`quvchining aqliy rivojlanish darajsini aniqlashda quyidagilarga e'tibor berish lozim.

- a) tafakkur jarayonlarining rivojlanganlik darajasi;
- b) tafakkurning texnik faoliyatida yuzaga chiqadigan maxsus xususiyatlari;
- v) o`z faoliyatini rejelashtirishi va boshqara olishi;
- g) texnik vazifalarni echishda muhim ahamiyatga ega bo`lgan xususiyatlarning mavjudligi.

O`quvchining aqliy rivojlanish darajsi, mehnat malakalari va ko`nikmalarini o`rganish uchun qo`llash mumkin bo`lgan oddiy metodikalarga quyidagilar kiradi:

### **Ortiqcha predmetni topish (va olib tashlash)**

Bu metodika o`quvchi tafakkurining analitik-sintetik xususiyatlarini, tahlil qilinayotgan materialni umumlashtira olish malakasining mavjudligi darajasini o`rganishga mo`ljallangan. Metodikani o`rganish uchun maxsus ravishda tuzilgan rasmlar majmuasidan foydalaniladi.

### **Ortiqcha tushunchani topish**

Bu metodika yuqorida ko`rsatilgan metodikaning verbal (so`zlar yordamida ifodalanadigan) varianti bo`lib, o`quvchining mavhum va so`z-mantiq tafakkurini, abstrakt materiallarni umumlashtira olish malakasini o`rganishda qo`llaniladi.

### **Tushunchalarni taqqoslash**

Bu metodika o`quvchidagi elementar fikrlash ko`nikmasining mavjudligini aniqlash imkonini beradigan sodda metodikadir. Metodika taqqoslash orqali berilayotgan berilayotgan so`zlardagi o`xshashlik va fikrlarni aniqlashga yo`naltirilgan. O`quvchiga bir qancha taqqoslash imkoniyati bor so`zlar beriladi. So`zlar majmuasining orasida taqqoslash mumkin bo`lmagan, ya`ni umumiyl belgiga ega bo`lmaganlari ham qo`shiladi. Masalan: “ko`l-daryo”, “daraxt-yog`och”, “ruchka-qalam”, “qayiq-ko`prik”, “temir-sut”. O`quvchining vazifikasi berilgan so`zlarning umumiyl, o`xshash tomonlarini va ular nimasi bilan bir-biridan farq qilishini ko`rsatish.

Topshiriq bo`yicha misollar va uning bayoni. Topshiriqlar savol harakteridagi gaplardan iborat. Ularning har birida bittadan so`z etishmaydi. Siz

tavsiya etilgan bosh so`zdan berilgan gapga mos keladiganning tagini chizishingiz kerak.

Faqat bitta so`zning tagiga chiziladi.

Mazmun jihatidan “biografiya” so`zi bilan qaysi so`z bir xil?

a) tasodif, b) qahramonlik, v) tajrimai hol, g) kitob, d) yozuvchi.

Bu erda “tajrimai hol” so`z to`g`ri hisoblanadi. SHuning uchun ham uning tagiga chiziladi.

### **Murakkab analogiya**

Bu metodika narsalar va hodisalar orasidagi murakkab mantiqiy bog`lanishlar va munosabatlarni tushunish darajasini aniqlashga yo`naltirilgan. Metodika bir-biri bilan ma'lum munosabatda bo`lgan so`zlar juftligi qo`llaniladi. Masalan: “yorug`lik-qorong`ulik”, “qo`rqish-qochish”, “dushman-raqib” va hokazolar. Barcha vazifalar ikki guruhga bo`linadi. Birinchi guruh-misol tariqasida juftliklar. Ikkinsi guruh esa-tekshiriluvchi baholashi lozim bo`lgan juftliklardan ibortadir, ular birinchi guruhdagagi juftliklardagi munosabatlarni o`zida aks ettiradi.

### **Oddiy analogiya**

Metodika oldindan berilgan (ko`rsatilgan) fikrlash usulidan foydalanib tushunchalar orasidagi mantiqiy bog`lanishlarni topishga o`ynaltirilgan. Metodika quyidagi toifadagi vazifalardan iborat bo`lishi mumkin:

## **O`quvchining o`quv materialidagi muhim va asosiy belgilarni ajrata olishi**

O`quvchining o`quv materialidagi muhim va asosiy belgilarni ajrata olish malakasi quyidagi usul yordamida aniqlanadi:

Tekshiriluvchiga ma'lum so`zlar qatori beriladi, masalan:

**SHAHAR** (avtomobil, bino, odam, ko`cha, velosiped);

**KUB** (burchaklar, chizma, tomonlar, tosh, yog`och);

**BO`LISH** (sinf, bo`linuvchi, qalam, bo`luvchi, qog`oz);

**O`YIN** (o`yinchilar jarima, qoida, jazo, o`yingoh);

O`quvchining vazifasi qavs ichida berilgan beshta so`zlardan qavs tashqarisidagi katta harflar bilan yozilgan tushunchaning topishdan iboratdir.

## **O`quvchining o`quv malakalarini o`rganish**

O`quvchilarning o`quv malakalarini o`rganish quyidagi usullardan foydalanib amalga oshirilishi mumkin:

a) “O`quv materialiga sarlavha qo`yish va aosiy ma`nosini qisqacha tushuntirib berish”;

- b) “Matnni o`rganib unga reja tuzish”;
- v) “Og`zaki javob rejasini yaratish”;
- g) “Aniq mehnat faoliyatini rejalahtirish”.

Biz yuqorida to`xtalib o`tgan barcha metodikalar bir-birini to`ldiruvchi metodikalari bo`lib, ularni ketma-ket yoki almashtirgan holda qo`llab borilsa, ular bir vaqtning o`zida ham diagnostik instrument, ham o`quvchining tafakkurini rivojlantirish vositasi bo`lib xizmat qiladi.

## **Nutqda “Q” tovushini hosil qilish**

**Maqsad:** - Bolalarning nutqida “Q” tovushini hosil qilish, so’zlarda o’rnini bilish;  
- Bolalarni so’z boyligini va tafakkurini rivojlantirish.

**Metodik usullar:** Mashqlarni bajarish, savol-javoblar uyushtirish, rasmlar bilan ishlash, “Kim tez topadi” didaktik o’yini

**Jihozlar:** O’yinchoqlar, rasmlar, bolalarning ishtiroki.

### **Mashg’ulotning borishi:**

**“Q” tovushining pastanovkasi.**

**“Q” tovushini talaffuz qilganda:**

A) Lablar biroz ochiq bo’ladi;

B) Tishlar orasi ham biroz ochiq;

V) “Q” tovushi A, I, O, U unli tovushlari bilan birgalikda talaffuz etilganda til uchi pastga tushgan va pastki kurak tishlarga biroz etmay turadi, tilning orqa kuragi yumshoq tanglay bilan birikadi;

G) yumshoq tanglay “K” tovushiga nisbatan yanada ko’tarilgan va tomoqning orqa devoriga tiralgan bo’ladi, havo og’iz bo’shlig’i orqali o’tadi.

### **Tashqiliy qism:**

**Salomlashish. Bolalarning diqqatini mashg’ulotga tortish.**

- Bolajonlar bugun havo qanaqa?
- Hozir qaysi fasl?
- Qaysi qushlar bahorda uchib keladi?
- Qishda nima yog’adi?

### **Artikulyasyon mashqlar**

### **A) Lab mashqi.**

Yuqori va pastki lablar yuqoriga va yonga tortilib “tabassum” holati yuzaga keltiriladi. “O” tovushini talaffuz qilganda lablar oldinga cho’ziladi, lekin “U” tovushini talaffuz qilganda esa bu holat o’zgaradi. Yana “tabassum” holatidan foydalilanadi. O-I-A-U-O’-I-O tovushlari yuqoridagi tartibda ovozsiz bir necha bor takrorlanadi.

### **B) Til mashqi**

Tilni og’izdan chiqarish va og’izga yashirish, chap va o’nga, yuqori va pastga harakatlantirish, lablarni, tanglayni, tishlarni yalash harakatlari bajariladi. Tilni ariqcha va tog’orocha shakliga keltirish, aylantirish, otning yurishiga taqlid qilish va tilni tishlash mashqlari bajariladi.

### **V) Jag’ mashqi**

Jag’ni oldinga, orqaga, o’nga, chapga harakatlantirish mashqlarini shoshilmay bajarish talab etiladi.

### **“Q” tovushini nutqga qo’yish**

Hozir sizlar bilan poezd o’yinini o’ynaymiz. Haydovchi poezd gudogini chaladi: du-u-u-u-u. Poezd yurib ketadi, sen qo’lingni tizzangdan bukib, vagon g’ildiragini harakatini bajarib, taq-tuq deb aytasan. Qani, boshladik!

### **“Q” tovushining aniq va to’g’ri talaffuzi**

QA \_\_\_\_\_ QAQAQAQA

QA – QALAM

QO \_\_\_\_\_ QOQOQOQO

QO – QOSH

QU \_\_\_\_\_ QUQUQUQU

QU - QUSH

### **So’zlarni to’g’ri o’qing**


QOSHQIZIL	QOVUN	QURBAQA
QI-ZIL	QO-VUN	QUR-BA-QA
QIZIL	QOVUN	QUR-BAQA QURBA-QA

*So'zlarni eshitib takrorlang*

QOVUN, QOSHIQ, QOVOQ, TOVOQ, QOZOQ,  
 OYOQ, QOR, QIZIL, OBID,  
 QAHRAMON, QALAM, QO'SHIQ.

**Rasmlar yordamida gap tuzamiz**

*Qo'y Qaychi. Qushlar. Toshbaqa. Bayroq. Ayiq.*



**Savollarga javob beramiz**

1. Qaysi bolaning ismida "Q" tovushi bor?

2. Qaysi qaslning “Q” tovushi bor?
3. Qaysi poliz ekinida “Q” tovushi bor?
4. Qaysi parranda nomida “Q” tovushi?

### **“Q” tovushining talaffuzidagi farqlanish**

Q – K	QA – GA	AQA – AKA
Q – K	QO – KO	AQO – AKO
Q – K	QU – KU	AQU - AKU
QARAMA – QARIMA		
QOSIM – KOZIM		
QULOQ –KURAK		

### **Gaplarni to'g'ri o'qiymiz**

Qambar qora qalam oldi.  
 Qodirjon qovun so'ydi.  
 Bog'da qizil, sariq gullar ochildi.

### **TOPISHMOQLAR**

- 1) Xasan-xusan birga o'sadi,  
 Bir tan bo'lib buyum kesadiyu (**qaychi**)
- 2) Ichi bo'yoq, sirti tayoq. (**qalam**)
- 3) Boshi bor-u – sochi yo'q,  
 Tez yurishda tengi yo'q. (**baliq**)

### **Tez aytishni ayting**

Qodir qahraton qishda qirqma qovun qidirdi.

## **Maqollar**

Qolgan ishga qor yog'ar.

Dehqon bo'lsang, shudgor qil.

### **Fonematik idrokni rivojlantirish**

**Bolalar, “Q” tovushi ishtirok etgan so’zlarni eshitsanglar chapak chaling.**

Choynak,	qizil,	chiroq,	qush,
kubik,	olma,	toshbaqa,	chumchuq,
chumoli,	qopqoq,	qora,	kalit.

### **“Q” tovushli so’zlarni raslardan izlab top**



### **“Kim birinchi” didaktik o'yini**

**O'yining maqsadi:** Bolalarning uy va yovvoyi hayvonlar mavzusidagi bilimlarini mustahkamlash, hayvonlar haqida hikoya tuzishga o'rgatish.








**Jihozlar:** Uy va yovvoyi hayvonlar tasvirlangan rasmlar to'plami.

**O'yining borishi:** Bolalarga 3-4 ta qartochka beriladi. Tayyor bo'lган bola o'zining rasmdagi hayvonni tasvirlaydi.

- Bu yovvoyi hayvon, katta, rangi qo'ng'ir, qishda inida uxlaydi, asalni yaxshi ko'radi.

Bolalarga yordam sifatida savollar beriladi:

- Uy yoki yovvoyi hayvonmi?
- Kattami yoki kichikmi?
- Rangi qanaqa?
- Qaerda yashaydi?
- Nima eydi?
- Bizga foydali va zarali tomoni bormi?



### Mashg'ulotni yakunlash

Bolajonlar! Bugun biz qanday tovush ustida ishladik? Juda soz. Uyda, bog'chada "Q" tovushini oynaga qarab mashq qilib turamiz. Xayr bolajonlar.



# Ko`ngilochar nutq o`stirish mashg`ulotlari

## Mavzu: Ertaklar olamiga sayohat.

**Maqsad:** Mustaqil davlatimizda boy va qadimiy me'rosimiz, qadriyatlarimizni ardoqlashga ahamiyat berish. Bolalarga milliy iftixor kabi fazilatlarni singdirib borish. Ertaklar orqali ijodiy tasavvurlar va mantiqiy fikrlashni o'stirish. Ertak qahramonlarining ijobiy va salbiy hislatlarini chuqurroq o'rghanishga ko'maklashish.

**Jihoz:** Guruhni milliy ruhda bezatish, uchar gilam, mumtoz kuy, buyu siymolar va ertak qahramonlarining rasmi, bolalarmi roliga mos kiyimlar: tulki, qarg'a, quyon, ertakchi, chopar.

## Mashg'ulotning borishi

Salomlashish, bolaning diqqatini turli savollar bilan mashg'ulotga tortish:



- Assalomu alaykum, bolajonlar. Qani menga aytinlar-chi, bu nimaning rasmi?
- Qushlarning rasmi.
- Ular nechta?
- Beshta.
- Lekin bu so'zni boshqacha talaffuz qilyapsiz. Biz sizlar bilan "q" hamda "r" tovushini to'g'ri talaffuz qilishga harakat qilamiz.


Qani aytinlar-chi qarg'a qanday tovush chiqaradi:

- Qarr, qarr, qarr (bolalar bir necha bor birgalikda qaytarishadi)

Bolalar "Q" va "R" rasmlar yordamida tovushga oid so'zlar aytamiz:

Qush, qaychi, quyosh, arra ,qarg'a, ruchka, Ra'no, ro'mol...





Juda yaxshi aziz bolajonlar! Bugun sizlar bilan ertaklar olamiga sayohat qilamiz. U erda chalkashliklar yuz beribdi.

Guruhg'a "ot" choptirib ikkita bola kirib keladi.:

Uchar yo'rg'am "chu" deymn,  
Yo'rg'alarni quv deyman  
Ortda qolsin shamol ham,  
Mening do'stim Bahrom ham.  
(Abdulla)

Qolib ketsin Abdulla  
Shunda barcha der "Balli"  
"Marraga tez et" – deyman,  
"Bu poygada yut" – deyman.  
(Abdumalik)

Ot choptirib davrani aylanib chiqishadi.

- Iya bolalar, ko'cha changitib yurish joningizga tegmadimi?
- Bo'lmasa nima qilaylik?
- Mana bu bolalarga qo'shilib odob-axloqdan ta'lim oling. Bizlar endi ertaklar olamiga sayr qilmoqchi edik. Keling, biz bilan sayr qiling. Boradigan manzilimiz uzoq, yo'lida tog'u-toshlar, dengiz-u ko'llar bor, ulardan qanday o'tamiz?
- U erga uchib boramiz.
- Nimada uchib borsa bo'ladi?
- Samolyotda, vertolyotda, yalmog'iz kampirning supurgisida, uchar otda, uchar gilamda.

- Juda yaxshi biz uchar gilamda uchib boramiz. Bolalar qarang, uchar gilamimiz mana.


- Ana uchayapmiz, endi ertaklar olamiga bemalol sayohat qilishimiz mumkin, qarang balandga ko'tarildik. Erimiz kichkina bo'lib ko'rinyapti. Bulutlar orasiga kirib ketdik. Bulutlar nimaga o'xshaydi?

- Qo'ziqoringa.

- Quyonchaga.

- Kemaga.

- Mana pastlasha boshladik. Ana etib keldik. Qarg'a uchib keldi.



### **Qarg'a:**

- Qar-qar, qornim ochdi. Bu tulki-mi? Hozir uni ushlab eyman.

### **Tulki:**

- Meni ema, men hali juda kichkinaman.

Quvlab ketadi.

- Ie, to'xtang – to'xtang, bu erda bir gap borga o'xshaydi. Bolalar bu qanday ertak bo'lди?

- "Qarg'avoy" ertagi. Qarg'a chalkashib ketdi, u tulkini emas, qo'zichoqni eyishi kerak edi.

- Ertakni kim so'zlab beradi?

Ertakni bolalar navbatma—navbat so'zlasha ketadilar

- Rahmat bolalar, engil tortdim. Endi qo'zichoqni eyman.

Tulki kirib keladi. Quyonlar davra qurib suhbatlashib o'tirishgan bo'ladi:

### **Tulki:**

- Ie, quyonlar-ku, ular nima haqida suhbatlashishayotgan ekan? Quloq solaychi.

### **Maqtonchoq quyon:**

- Men bo'rini bir tepib o'ldiraman. Tulkini "puf" deb uchrib yuboraman.
- Men haqimdamidi suhbatlari. Hozir hammasini eb qo'yaman.

Quyonlar qochib ketishadi.

### **Boshlovchi:**

- Quyonlarga tegma tulki. Kel biz bilan o'tir, nozu – ne'matlardan totib ko'r.
- Bolajonlar bu ertakda ham anglashilmovchilik borga o'xshaydi. Quyon qaysi ertakda edi?

- "Maqtanchoq quyon" ertagida.

- Qani, kim so'zlab beradi? Voqeа aslida qanday kechgan edi?

Bolalar navbatma-navbat so'zlab berishadi.

### **Quyonlar:**

- Rahmat, bolalar bizni tulkidan qutqardinglar.

### **Tulki:**

- Voy, bu ochil dasturxon-ku, uni uyimga olib ketaman.

### **Boshlovchi:**

- To'xta tulki, sen o'zi qaysi ertakdansan? Bolalar unga yordamlashing, tulki qaysi ertakdan?

- "Tulki va turna" ertagidan.

- Kim bu ertakni so'zlab beradi?

Ertakni bolalar navbatma—navbat so'zlasha ketadilar.

- Rahmat bolalar, endi borib turnanikida mehmon bo'laman.
- Bolajonlar, tulki olib ketmoqchi bo'lgan ochil dasturxon qaysi ertakdan.
- "Ur to'qmoq" ertagidan (So'zlab berishadi).
- Ana barakalla bilimdon boljonlar. Ertaklardagi chalkashliklarni ham echdinglar . endi ortga, qadrdon bog'chamizga qaytishimiz kerak. Gilamimiz uchishi uchun odob-axloqqa oid maqollardan aytib berishimiz lozim.
- Odobni odoblidan o'rgan.
- Odob kishining ziynati.

- Odobli bola elga manzur.
- Ana gilamimiz uchdi. Tog'u-toshlardan oshib, bizni o'z manzilimizga etkazib qo'y, uchar gilam.
- Etib keldik, bolajonlar. Mana sizlarning yordamingiz bilan ertaklar mamlakatidagi chalkashliklarni to'g'rilib keldik. Qani aytinlarchi, shuncha ertaklarni bilar ekansiz, unda yomonlarga, yolg'onchilarga, maqtanchoqlarga qanday jazo berilar ekan?....

Bolajonlar ertak davomida berilgan jazolar haqida gapirishadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. E.Goziev va boshkalar «Psixologiya muammolari» 1999 y.
2. F.Abduraxmonov. Davletshin «Odamlar Bilan qanday mulokotga kirishish va yoshdashish kerak» 1996 y. Toshkent.
3. «Psixologiya izoxli lugat» 1998 y.
4. M.G.Davletshin taxriri ostida «Yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiya» 1974 y. Toshkent.
5. E.Goziev «Yosh psixologiyasi» 1994 y.
6. Adizova «Ukituvchilarning shaxslararo munosabatlarini psixologik diagnostikasi va korreksion ishlari».
7. Adizova, Usanova «Psixologicheskie trudnosti v obuchenii mladshix shqolnikov» 1995 y. Toshkent.
8. M.Shoy «Esli Vash rebyonok svodit.....».
9. «Modelirovaniye v pedagogicheskix situasiyakh» 1981 y. Moskva.
10. A.S.Snikovskaya. «Profilaktika detskix nevrozov» 1988 y. Moskva.
11. A.V.Tolstых «Moralno-esteticheskie problemы psixologicheskoy praktiki» 1988 y. Moskva.
12. N.V.Syuzen, Ponomov «Psixotrening» 1989 y. Moskva.



## **MUNDARIJA**